adjusting [əˈdʒʌstɪŋ] *a tex.* tartibga keltiradigan, sozlaydigan.

adjustment [əˈdʒʌstmənt] *n* tartibga solish; kelishish; **to make ~ to ...ga** moslashmoq.

adjutancy [ædʒʉ:tənsi] *n* adyutant unvoni, vazifasi.

adjutant [ædʒʉ:tənt] *n* 1) adyutant (*harbiy rahbar yoki shtab topshiriqlarini bajaruvchi ofitser*); 2) safdagi xizmat *yoki* shaxsiy tarkib boʻlim boshligʻi.

adjutant-bird [ædʒʉ:tənt bæ:d] *n zool.* jigʻildonli hind laylagi.

adjutant [ædʒʉ:vənt] *n* 1. *n* yordamchi, yordamchi xoʻjalik; 2. *a* yordam beruvchi, foydali.

ad-lib [ˈædˈlib] *a teatr. prof.* tayyorlanmagan.

adman [ˈædˈmæn] *n (pl -men [-mən])* reklama mutaxassisi, reklama agenti, reklama agentligi xodimi.

admeasure [ˈædˈmeʒə] *v* oʻlchamoq; chegarani aniqlamoq.

administer [ədˈmɪnɪstə] *v* 1) boshqarmoq, ishlarni yuritmoq; **to ~ smb.'s affairs** kimningdir ishini yuritmoq; **to ~ the affairs of the state** davlatni boshqarish (*idora qilmoq*).

administration [ədˈmɪnɪstreɪ-ʃən] *n* 1) ishlar boshqarmasi; 2) maʼmuriyat; **military** ~ harbiy boshqarish; 3) hukumat; 4) vazirlik.

administrative [ədˈmɪnɪstrətɪv] *a* maʼmuriy; boshqarmaga oid; maʼmuriy-xoʻjalikga oid; ~ **duties** maʼmuriy vazifalar.

administrator [ədˈmɪnɪstreɪtə] *n* boshqaruvchi, maʼmur; maʼmuriy mansabdor shaxs.

administratrix [ədˈmɪnɪstreɪtrɪks] *n (pl -ices)* ayol boshqaruvchi.

admirable [ədˈmaɪərəbl] *a* juda yaxshi, ajoyib, aʼlo darajada, havas qilsa boʻladigan.

admiral [ˈædmərəl] *n* admiral; ~ **of the Fleet** flot admiral.

Admiralty [ˈædmərəlti] *n* harbiy-dengiz vazirligi (*Angliyada*).

admiration [ˈædməˈreɪʃən] *n*
zavq-shavq, shavq.

admire [ədˈmaɪə] *v* zavqlan-
moq, koʻrib huzur qilmoq, shodlan-
moq; **to ~ smb.** kimgadir qoyil qol-
moq.

admirer [ədˈmaɪərə] *n* ixlos-
mand; ~ **of music** musiqa ixlosmandi.

admiring [ədˈmaɪrɪŋ] *a* zavq-
langan, zavqqa toʻlgan.

admissible [ədˈmɪsəbl̩] *a* yoʻl
qoʻyiladigan, qabul qilsa boʻladi-
gan.

admission [ədˈmɪʃən] *n*
1) ruxsat (*ijozat*) berish; 2) kirish;
price of ~ kirish haqi.

admit [ədˈmɪt] *v* tan olmoq,
yoʻl qoʻymoq, qabul qilmoq.

admittance [ədˈmɪtəns] *n* kirish
uchun ruxsat; **no ~!** kirish man
etiladi!

admittedly [ədˈmɪtɪdli] *adv*
koʻpchilikning tan olishicha.

admix [ədˈmɪks] *v* aralashtir-
moq, qoʻshmoq, qorishtirmoq.

admixture [ədˈmɪkstʃə] *n* ara-
lashtirish (*qorishtirish*).

admonish [ədˈmɒnɪʃ] *v* ogoh-
lantirmoq; ogohlantirib qoʻymoq.

admonishment [ədˈmɒnɪʃ-
mənt] *n* ogohlantirish.

admonition [ˈædməʊˈnɪʃən] *n*
ogohlantirish, maslahat.

admonitory [ədˈmɒnɪtəri] *a*
ogohlantiradigan, ogohlantiruv-
chi, oldini oluvchi.

ado [ɔˈduː] *n* yugur-yugur, hov-
liqish, tashvish; **much ~ about**
smth. nimanidir bahona qilib katta
shovqin koʻtarmoq.

adobe [ɔˈdəʊb] *n* 1) xom gʻisht;
2) somon suvoqli paxsa uy.

adolescence [ˌædəʊˈlesns] *n*
yoshlik, oʻspirinlik.

adolescentcy [ˌædəʊ(n)ˈlesnsɪ] *n*
yoshlik, oʻspirinlik.

adolescent [ˈædəʊnˈlesənt]

1. *n* yosh yigit; voyaga yetgan qiz;
oʻspirin; 2. *a* yoshlarga oid.

adopt [ɔˈdɒpt] 1. *v* oʻgʻil qilib
asrab olmoq; qiz qilib asrab olmoq;
to ~ a child bolani oʻgʻil qilib asrab
olmoq; 2. qabul qilmoq; **to ~ a law**
qonun qabul qilmoq.

adoptability [ɔˌdɒptəˈbɪlɪti] *n*
yaroqlilik.

adoptable [ɔˈdɒptəbl̩] *a* yaroqli.

adopted [ɔˈdɒptɪd] *a* 1) asrab
olgan (*asrandi*); ~ **child** asrandi
bola; 2) oʻzlashtirgan; 3) boshqa
tildan olingan (*oʻzlashtirilgan*);
~ **word** boshqa tildan olingan
soʻz.

adoptee [ˈædɒpˈtiː] *n* asrandi
bola, boqib olingan bola.

adoption [ɔˈdɒpʃən] *n* 1) bola
qilib olish (*asrash*); 2) qabul qilish;
~ **of the agenda** kun tartibini tas-
diqlab olish.

adoptive [ɔˈdɒptɪv] *a* 1) boqib
olingan, asrab olingan; 2) oson
oʻzlashtiradigan.

adorable [ɔˈdɔːrəbl̩] *a* aziz (*moʻ-
tabar*).

adoral [æˈdɔːrəl] *n* anat. ogʻz-
ning yaqinida joylashgan.

adoration [ɔˈdɔːreɪʃən] *n* qattiq
sevish, hurmat qilish.

adore [ɔˈdɔː] *v* qattiq sevmok,
hurmat qilmoq.

adorer [əˈdɔːrə] *n* hurmat qiladigan, muxlis, ishqiboz.

adorn [əˈdɔːn] *v* bezatmoq, yasatmoq; **to ~ a room with flowers** xonani gullar bilan bezatmoq.

adornment [əˈdɔːnmənt] *n* 1) bezash (*harakat*); 2) bezak (*zebziynat*); **the beautiful ~s** ajoyib bezaklar.

adown [əˈdaun] **1.** *adv. esk.* *shoir.* pastga; pastda; **2.** *prep. esk. shoir.* pastida; pastiga.

address [ædˈpres] *v* *kitob.* siqmoq.

adrenal [ədˈriːnəl] **1.** *n anat.* buyrak usti bezi; **2.** *a anat.* buyrakdagi, buyrak ustidagi.

adrift [əˈdrift] *adv* oqimga qarab, oqim ixtiyorida; **to set ~ a)** oqimga qarab qo'yib yubormoq; **b)** o'z holiga tashlab qo'ymoq.

adrogyne [ˈædrɔdʒin] *n* xunasa.

adroit [əˈdrɔit] *a* ephil (*chaqqon*); mohir, hozirjavob.

adroitly [əˈdroitli] *adv* ephillik bilan; mohirlik bilan; hozirjavoblik bilan.

adroitness [əˈdrɔitnis] *n* ephilik (*chaqqonlik*); mohirlik; hozirjavoblik.

adscititious [ˌædsɪˈtʃiʃəs] *a* *kitob.* qo'shimcha qilingan, qo'shimcha; ikkinchi darajali.

adsorb [ædˈsɔːb] *v* *kim.* o'ziga tortib olmoq (*shimirmoq*).

adsorbent [ædˈsɔːbənt] *n* *kim.* yutuvchi modda.

adsorption [ædˈsɔːbjən] *n* *kim.* yutish (*o'ziga tortish, shimib olish*).

adularia [ˌædjuˈleəriə] *n* *min.* oytosh (*nim shaffof, yashil tovla-nadigan mineral*).

adulate [ˌædjuleɪt] *v* laganbardorlik qilmoq; xushomadgo'ylik qilmoq; egilib ta'zim qilmoq.

adulation [ˌædjuːˈleɪʃən] *n* laganbardorlik; xushomadgo'ylik; egilib ta'zim qilish; **master of ~** laganbardor.

adulatory [ˌædjuleɪtəri] *a* xushomadgo'y'larcha, laganbardorlar-cha.

adult [ˈædʌlt] **1.** *n* katta yoshli, balog'atga yetgan kishi; **courses for ~s** kattalar maktabi; **2.** *a* 1) balog'atga yetgan, voyaga yetgan, katta yoshli; 2) kattalar uchun; **~ film** kattalar uchun film.

adulter [əˈdʌltə] *n* *esk.* yomon yo'lda yuradigan erkak.

adulterant [əˈdʌltərənt] **1.** *n* aralashma (*sifatni pasaytiradigan*); **2.** *a* aralash(*gan*); toza (*sof*) emas.

adulterate [əˈdʌltəreɪt] *v* qalbakilashtirmoq.

adulteration [əˈdʌltəreɪʃən] *n* soxtalashtirish.

adulterer [əˈdʌltərə] *n* yomon yo'lga yuradigan erkak.

adulteress [ˈædʌltəris] *n* yomon yo'lga yuruvchi ayol.

adultery [əˈdʌltəri] *n* erga (*yoki xotinga*) xiyonat qilish.

advance [ədˈvɑːns] **1.** *n* oldinga harakat qilish; **2.** *v* oldinga harakat qildirmoq.

advance [ədˈvɑːns] **1.** *n* oldinga harakat qilish; **2.** *v* oldinga harakat qilmoq.

advanced [ədˈvɑːnst] *a* ilgʻor (*yetakchi*).

advancement [ədˈvɑːnsmənt] *n* ilgari^lash, ilgʻa yurish.

advantage [ədˈvɑːntɪdʒ] **1.** *n* us-tunlik, afzallik; **take** ~ foydalanib qolmoq; **2.** *v* qoʻl kelmoq.

advantageous [ˈædvəntɪdʒəs] *a* qulay, foydali.

advent [ˈædvənt] *n* yetib kelish, kelish.

adventitious [ˈædvənˈtʃiəs] *a* tasodifiy, kutilmagan.

adventure [ədˈventʃə] **1.** *n* sar-guzasht; **2.** *v* tavakkal (*qaltis ish*) qilmoq.

adventurer [ədˈventʃərə] *n* ta-vakkalchi.

adventurous [ədˈventʃ(ə)rəs] *a* xavfli, xatarli.

adverb [ˈædvəːb] *n* gram. ravish.

adverbial [ədˈvəːbiəl] *a* gram. ravishga oid.

adverbially [ədˈvəːbjəli] *adv.* gram. ravish sifatida, ravishdek.

adversary [ˈædvəsəri] *n* dush-man, raqib.

adverse [ˈædvəːs] *a* 1) dush-manlarcha; 2) zararli.

adversity [ədˈvəːsɪti] *n* baxt-sizlik, omadsizlik.

advert [ədˈvəːt] *v* dalil keltir-moq, isbot keltirmoq.

advertise [ˈædvətaɪz] *v* eʻlon qilmoq.

advertisement [ədˈvəːtɪsmənt] *n* eʻlon; reklama.

advertize [ˈædvətaɪz] *v* eʻlon qilmoq.

advice [ədˈvaɪs] *n* maslahat; nasihat.

advisable [ədˈvaɪzəbl] *a* 1) oʻy-lab (*aql bilan*) ish qiladigan, aqlli, dono, mulohazali, ehtiyotkor; 2) tavsiya etilayotgan.

advise [ədˈvaɪz] *v* maslahat bermoq.

adviser [ədˈvaɪzə] *n* maslahat-chi.

advisor [ədˈvaɪzə] = **adviser**.

advisory [ədˈvaɪzəri] *a* masla-hatli.

advocacy [ˈædvəkəsi] *n* hi-moya; oqlash.

advocate [ˈædvəkət] **1.** *n* himo-yachi, tarafdor; **2.** *v* himoya qilmoq.

aerate [ˈeɪəreɪt] *v* shamollat-moq.

aerial [ˈɛəriəl] **1.** *n* antenna; **2.** *a* havoga oid.

aerie [ˈɛəri] *n* 1) yirtqich qush uyasi; 2) (*asosan*) burgut ini; 3) tik qoyadagi uy.

aerieform [ˈɛəriːfɔːm] *a* havoga oid; gazzimon.

aerify [ˈɛəriːfaɪ] *v* gazli qilmoq (*gaz bilan toʻyintirmoq*).

aerobatics [ˈɛə rəʊˈbætɪks] *n* av. figurali uchish.

aerobiology [ˈɛərəubaɪ ɔlədʒi] *n* aerobiologiya.

aerobomb [ˈɛərəubɔm] *n* avi-abomba.

aerocamera [ˈɛərəʊ kæməərə] *n* aerokamera.

aerocarrier [ˈɛərəʊ kærɪə] *n* avianosets (*samolyotlar uchishi va qoʻnishi uchun moslangan har-biy kema*).

aerodrome [ˈeərədrʊm] *n* aerodrom.

aerodynamical [ˈeərədaɪ næmɪkəl] *a* aerodinamikaga oid.

aerodynamics [ˈeərədaɪ næmɪks] *n* aerodinamika.

aerodyne [ˈeərədaɪn] *n* havodan ogʻirroq boʻlgan uchish apparati.

aeroembolism [ˈeərouˈembəlɪzm] *n* kesson kasalligi (*kesson sharoitida ishlovchilarda yuz beradigan kasallik*).

aero-engine [ˈeərəuˈendʒɪn] *n* aviatsiya dvigateli.

aerofoil [ˈeərəfɔɪl] *n av.* aerodinamika yuzasi.

aerogram [ˈeərəugræm] *n* radiogramma.

aerogun [ˈeərəugʌn] *a* avia-pushka.

aerogjet [ˈeərəuˈdʒet] *a* havoreaktiv.

aerolite [ˈeərəulaɪt] *n geol.* aerolit.

aerology [ˈeərəulədʒɪ] *n* aerologiya (*atmosferaning yuqori qatlamlari xususiyatlarini oʻrganadigan fan*).

aeromechanics [ˈeərəumiˈkæniks] *n* aeromexanika.

aerometer [ˈeərəmɪtə] *n* aerometr.

aeronaut [ˈeərənɔ:t] *n* aeronavt, havoda yengil apparatlarda uchuvchi.

aeronautical [ˈeərəˈnɔ:tɪkəl] *a* havoda uchishga oid.

aeronautics [ˈeərəˈnɔ:tɪks] *n* aeronavtika.

aeronavigation [ˈeərənævɪˈgeɪʃən] *n* aeronavigatsiya (*havo navigatsiyasi*).

aerophone [ˈeərəfəʊn] *n* tovush kuchaytirgich.

aeroplane [ˈeərəpleɪn] *n* samolyot.

aeroport [ˈeərəpɔ:t] *n* aeroport.

aerosol [ˈeərəʊsəl] *n kim.* aerosol.

aerosphere [ˈeərəsfɪə] *n* aerosfera.

aerostat [ˈeərə(ʊ)stæt] *n* aerostat.

aerostatics [ˈeərəuˈstætɪks] *n* aerostatika.

aerostation [ˈeərəuˈsteɪʃən] *n* havoda uchish (*suzish*).

aerotechnics [ˈeərəuˈteknɪks] *n* aviatsiya texnikasi.

aery [ˈeəri] *n* burgut uyasi.

aesthete [ˈi:sθi:t] *n* estet (*goʻzallika, nafis sanʼatga berilgan kishi*).

aesthetic [i:sθetik] *a* 1) nafis; 2) estetik.

aesthetics [i:sθetɪks] *n* estetika.

aestho-physiology [ˈi:sθəuˈfɪzɪˈɔlədʒɪ] *n* sezish organlarining fiziologiyasi.

actiology [ˈi:tɪˈɔlədʒɪ] *n tib.* etiologiya (*kasallik paydo boʻlish sabablari haqidagi bilim*).

afar [ɔˈfa:] *adv* uzoq; ~ **from** uzoqdau.

affability [ˈæfəˈbɪlɪtɪ] *n* xushmuomalalik.

affable [æfəbl] *a* xushmuomala.

affair [əˈfeə] *n* ish, xizmat; **it's none of my** ~ bu mening ishim emas.

affect [ə'fekt] **1.** *v* ta'sirini o'tkazmoq; **2.** *v* mug'ombirlik qilmoq.

affectation [æfek'teifən] *n* mug'ombirlik.

affected [ə'fektid] *v* yuzaki.

affectation [ə'fekʃən] *n* mehribonlik, muhabbat.

affectionate [ə'fekʃnit] *a* mehribon, sevuvchi.

affective [ə'fektiv] *a* hissiyotga (*hissiyotga*) oid.

afferent [æfərənt] *a* fiziol. markazga intilish, markazga intiladigan.

affiance [ə'faɪəns] **1.** *n* unash-tirish; **2.** *v* unashtirmoq.

affiant [ə'faɪənt] *n* yur. guvoh.

affidavit [ˈæfiˈdeɪvɪt] *n* yur. qasam *yoki* tantanali va'da bilan tasdiqlangan yozma guvohlik (*ma'lumot*).

affiliate [ə'fɪliət] *v* birlashtirmoq; tasarrufiga bermoq, o'tkazmoq.

affiliated [ə'fɪliətɪd] *n* filiallar.

affiliation [ə'fɪli'eɪʃən] *n* qo'shish.

affined [ə'faɪnd] *a* yaqin, o'xshash, bog'liq (*biror narsa bilan*).

affinity [ə'fɪnɪti] *n* qarindoshlik.

affirm [ə'fɑ:m] *v* tasdiqlamoq.

affirmation [ˈæfəː'meɪʃən] *n* tasdiqlash.

affirmative [ə'fə:metɪv] *a* tasdiqlovchi.

affix [ˈæfɪks] **1.** *n* gram. affiks; **2.** *v* 1) biriktirmoq; 2) qo'l (*imzo*) qo'yimoq.

affixation [ˈæfɪk'seɪʃən] *n* affiksatsiya.

afflict [ə'flɪkt] *v* xafa qilmoq.

afflicted [ə'flɪktɪd] *a* ranjigan.

affliction [ə'flɪkʃən] *n* baxtsizlik.

affluence [æ'fluəns] *n* mo'lchilik, to'kin sochinlik.

affluent [ˈæfluənt] *a* serob; mo'l-ko'l.

afflux [ˈæflʌks] **1.** *v* oqib kelmoq; **2.** *n* oqib kelish.

afford [ə'fɔ:d] *v* 1) imkoniyat bo'lmoq; 2) biror narsani o'ziga ep ko'rmoq (*ko'pincha can afford, to be able to afford*); 3) bermoq, bag'ishlamoq; **to ~ pleasure** rohat (*huzur*) bag'ishlamoq.

afforest [æ'fɔ:rɪst] *v* daraxtzorlashtirmoq.

afforestation [æ'fɔ:rɪs'teɪʃən] *n* daraxtzorga aylantirish, daraxt ekish.

affranchise [ə'fræntʃaɪz] *v* ozodlikka chiqarmoq.

affray [ə'frei] *n* urishish, yoqalashish.

affreightment [ə'freɪtmənt] *n* deng. yuk tashishga kema yollash.

affricate [ˈæfrɪkɪt] *n* fon. qorishiq tovush.

affright [ə'fraɪt] *v* sher. qo'rqitmoq.

affront [ə'frʌnt] **1.** *n* haqorat qilish; **2.** *v* haqorat qilmoq.

affusion [ə'fju:ʃən] *n* sepih (*purkash*).

Afghan [ˈæfgæn] *a* Afg'oniston-tonga va afg'onlarga oid.

afghani [æf'gæni] *n* afg'oni (*Afg'onistonning pul birligi*).

affield [ə'fi:ld] *adv* 1) dalada, maydonda; 2) uydan uzoqda; 3) yo'lning chekkasida.

afire [ɔ'faɪə] *a* 1) o'tda; 2) o'tda yonayotgan.

affame [ɔ'fleɪm] *a* 1) o'tda; 2) olovli, o'tli.

afiat [ɔ'flæt] *adv* tekis, yassi, yalpoq.

afloat [ɔ'fləʊt] *a* suvda, suvning ustida suzayotga, oqimga qarab suzayotgan.

afoot [ɔ'fʊt] *a* 1) piyoda; 2) harakatda; **to be** ~ urinmoq.

afore [ɔ'fɔ:] *adv* 1) oldinda; **marching on** ~ oldinda harakat qilib; 2) boshlanishida, oldin, ilgari.

aforecited [ɔ'fɔ:saitɪd] *a* yuqorida keltirilgan; yuqorida aytib o'tilgan.

aforegoing [ɔ'fɔ:gəʊɪŋ] *a* oldingi, ilgari.

aforenamed [ɔ'fɔ:neɪmɪd] *a* yuqorida nomi aytilgan.

afore-said [ɔ'fɔ:sed] *a* yuqorida eslatib o'tilgan.

aforethought [ɔ'fɔ:θɔ:t] *a* oldindan o'ylab (*mo'ljalab*) qo'yilgan.

aforetime [ɔ'fɔ:təɪm] *adv* avval, oldin, qadim zamonda.

afraid [ɔ'freɪd] *a* qo'rqqan; **be** ~ qo'rqmoq.

afreet [ˈæfri:t] *n afs.* shayton, iblis.

afresh [ɔ'freʃ] *adv* yangidan, qaytadan.

African [ˈæfrɪkən] **1.** *n* afrika-lıklar; **2.** *a* Afrikaga oid.

africander [ˈæfriˈkændə] *n* afrikander (*asli Gollandiyalik bo'lgan Janubiy Afrika fuqarosi-ga berilgan nom*).

afrit [ˈæfrɪt] *n afs.* shayton, iblis.

aft [a:ft] *adv deng.* kemanding quyruq qismida.

after [a:ftə] *a* keyin, so'ng; ~ **breakfast** nonushtadan so'ng; ~ **all** nihoyat.

afterbirth [ˈa:ftəbɜ:θ] *n anat.* yo'ldosh, bolalar joyi.

afterburning [ˈa:ftəbɜ:nɪŋ] *n tex.* yonib tamom bo'lgan yoqilg'ı.

after-care [a'fləkeə] *n* sog'a-yayotgan kasalni parvarish qilish.

aftercrop [ˈa:ftəkrɒp] *n q.x.* ikkinchi hosil; ikkinchi o'rim.

afterdamp [a:ftədkæmp] *n tog'.* zaharli gaz aralashmasi.

after-effect [ˈa:ftəɪfekt] *n* natija.

after-game [ˈa:ftəgeɪm] *n* qaytadan yutib olish uchun urinib ko'rish.

after-grass [a:ftəgrɑ:s] *n* yangi o't (*maysa*).

afterimage [ˈa:ftəɪmɪdʒ] *n thv.* yo'qolmaydigan (*qoldiq*) tasvir.

after-life [ˈa:ftələɪf] *n* narigi dunyodagi hayot.

afterlight [ˈa:ftələɪt] *n teatr.* orqadagi yorug'lik.

aftermath [a:ftəməθ] *n* oqibat (*talafot, falokat*).

aftermost [ˈa:ftəməʊst] *a deng.* kema quyruq'iga yaqinroq joyda.

afternoon [ˈa:ftənu:n] *n* kunduzi (*tushdan keyin*); **good** ~! (*kunduzgi*) salom!.

afterpiece [ˈa:ftəpi:s] *n* tomo-shaning oxirida ko'rsatadigan kichik sahna asari yoki kontsertning oxi-

rida beriladigan qo'shimcha konsert dasturi.

afters [ˈɑːftəz] *n* pl ikkinchi va uchinchi taom.

aftertaste [ˈɑːftəteɪst] *n* ovqatdan keyingi og'izda qoladigan ta'm.

afterthought [ˈɑːftəθɔːt] *n* vaqt o'tgandan so'ng keladigan g'oya (*fikr*).

afterwards | ˈɑːftəwədz| *adv* so'ngra, keyin.

again | əˈgeɪn| *adv* qaytadan, yana; ~ **and** ~ ko'p marta.

against | əˈgeɪnst| *prep.* qarshi, qarama-qarshi.

agamic [əˈgæmɪk] *a biol.* erkak *yoki* urg'ochilik alomati yo'q.

agape [əˈgeɪp] *a* angrayib (*hayratdan*).

agaric [ˈæɡərɪk] *n bot.* qalpoq'ining osti burmali (*plastinka-simon*) qo'ziqorin.

agate | ˈæɡət| *n min.* aqiq (*kvarshning bir turi*).

agave [əˈgeɪv] *n bot.* agava (*katta-katta bargli tropik o'simlik*).

agaze [əˈgeɪz] *a predic.* hayratda qolgan, mahliyo bo'lgan.

age [eɪdʒ] **1.** *n* 1) yosh; 2) asr, davr, **Stone** ~ Tosh davri; **Middle** ~s O'rta asrlar; **2.** *v* qarimoq, keksaymoq, yoshi qaytmoq.

aged [eɪdʒɪd] *a* keksaygan, qarigan, yoshi qaytgan.

ageing [eɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish (*keksayish*); 2) yetilish.

ageless | ˈeɪdʒlɪs| *a* eskirmaydigan (*abadiy*); bir umr yashaydigan (*umrbod qoladigan*).

agelong [ˈeɪdʒlɔŋ] *a* azaliy, abadiy, mangu.

agency [ˈeɪdʒənsi] *n* 1) harakat; 2) agentlik.

agenda [əˈdʒendə] *n* kun tartibi, ko'riladigan masala.

agent | ˈeɪdʒənt| **1.** *n* agent; **2.** *a* harakat qiluvchi.

agential [əˈdʒənʃəl] *a* agent *yoki* agentlikka oid.

age-old [ˈeɪdʒ oʊld] *a* qadimdan qolib kelayotgan (*azaliy*).

agglomerate [əˈɡləməreɪt] *v* yig'moq, to'plamoq.

agglomeration [əˈɡləmə'reɪʃən] *n* to'plash, jamlash, yig'ish.

agglutinate [əˈɡluːtɪneɪt] **1.** *v* yelimplab (*sirachlab*) yopishtirmoq; **2.** *a* yelimplab yopishtirilgan.

agglutination | əˈɡluːtɪ'neɪʃən| *n* yopishtirish.

agglutinative [əˈɡluːtɪnətɪv] *a* yopishadigan; ~ **languages** agglutinativ tillar.

aggrandize [əˈɡrændaɪz] *v* kattalashtirmoq.

aggrandizement [əˈɡrændɪz-mənt] *n* ko'paytirish.

aggravate [ˈægrəveɪt] *v* yomonlashtirmoq, yomon holatga keltirmoq.

aggravating | ˈægrəveɪtɪŋ| *a* yomonlashtiradigan, yomon holatga tushirib qo'yadigan.

aggravation | ˈægrə'veɪʃən| *n* yomonlashish.

aggregate | ˈægrɪgeɪt| **1.** *n* *tex.* agregat (*mashinalar to'plami*); **2.** *a* bir joyga yig'ilgan; **3.** *v* bir joyga to'plamoq.

aggression [ɔ'greʃən] *n* hujum, tajovuz.

aggressive [ɔ'gresiv] *a* tajovuzkor; hamla qiluvchi.

aggressiveness [ɔ'gresivnis] *n* tajovuzkorlik, hujumkorlik.

aggressor [ɔ'gresə] *n* bosqinchi, tajovuzkor.

aggrieve [ɔ'gri:v] *v* ranjitmoq, xafa qilmoq.

aghost [ə'gə:st] *a* qoʻrquvdan esankirab qolgan.

agile [ˈædʒaɪl] *a* ephil, uddaburon, chaqqon.

agility [ɔ'dʒiliti] *n* chaqqonlik, ephilik, uddaburonlik.

agin [ɔ'gin] *prep.* qarshi, teskari.

aging [eidʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish.

agiotage [ˈædʒɪətɪdʒ] *n* ajiotaj; sunʼiy koʻtarilgan shov-shuv; birja oʻyini; chayqovchilik, olib-sotarlik.

agitate [ˈædʒɪteɪt] **1.** *v* tashviqot yurgizmoq; **2.** *v* hayajonlamoq.

agitated [ˈædʒɪteɪtɪd] *a* hayajonlangan.

agitation [ˈædʒɪteɪʃən] **1.** *n* tashviqot; **2.** *n* hayajon.

agitator [ˈædʒɪteɪtə] *n* 1) tashviqotchi; 2) *tex.* aralastirgʻich (*chilchoʻp*).

aglet [ˈæglɪt] *n* 1) shurning metallardan qilingan uchi 2) *bot.* bargak (*osilib turgan meva guli*).

aglow [ɔ'gləʊ] *a* qizib (*choʻgʻ boʻlib*) turgan.

agnail [ˈægneɪl] *n* milk (*tirnoqning milki*).

agnate [ˈægneɪt] **1.** *n* er tomonidan qarindosh; **2.** *a* yaqin, qardon (*qarindoshlar haqida*).

agnation [ˈægneɪʃən] *n* ota tomonidan qarindoshlik.

agnostic [ˈæɡˈnɒstɪk] **1.** *n* agnostitsizm tarafdori; **2.** *n* agnostikaga oid.

agnosticism [ˈæɡˈnɒstɪsɪzəm] *n* agnostitsizm (*falsafiy taʼlimot*).

ago [ɔ'gəʊ] *adv* muqaddam; **not long** ~ yaqinda; **years** ~ ancha yil ilgari.

agog [ɔ'gɔ:g] *a* koʻzi toʻrt boʻlib kutayotgan.

a-going [ɔ'gəʊɪŋ] *a* harakatda.

agonic [ɔ'gɒnɪk] *a* burchak chiqazmaydigan.

agonistic [ˈæɡɒnɪstɪk] *a* atletikaga va atletikachiga oid.

agonize [ˈæɡɒnaɪz] *v* qiynalmoq, azob bermoq.

agonizing [ˈæɡɒnaɪzɪŋ] *a* mashaqqatli, qiyn, ogʻir, murakkab.

agony [ˈæɡɒni] *n* eng kuchli ogʻriq.

agoraphobia [ˈæɡərəʊˈfəʊbiə] *n* *tib.* keng (*boʻsh*) joydan qoʻrqish.

agrarian [ɔ'greəriən] *a* agrar (*yer va undan foydalanish masalalariga oid*).

agree [ə'gri:] *v* rozi boʻlmoq (*to, with*); kelishmoq.

agreeable [ɔ'griəbl] *a* maʼqul, maqbul; kelishib boʻladigan.

agreeably [ɔ'griəblɪ] *adv* yoqimli.

agreed [ɔ'gri:d] *a* kelishilgan, rozi boʻlgan.

agreement [ɔ'gri:mənt] *n* 1) (*ikki tomonlama*) rozilik (*about*,

on); ~ **of opinion** hamfikrlik; 2) shartnoma, bitim (*about, on; between; with*); **to come to an** ~ bitim tuzmoq; 3) *gram.* moslashuv (*in*).

agricultural [ˈægrɪkʌltʃərəl] *a* qishloq xoʻjaligiga oid.

agriculture [ˈægrɪkʌltʃərəl] *n* qishloq xoʻjaligi.

agriculturist [ˈægrɪkʌltʃərɪst] *a* 1) agronom. 2) yer mutaxassisi.

agrieve [əˈɡri:v] *v* ranjitmoq, xafa qilmoq.

agrimony [ˈægrɪməni] *n bot.* chakamugʻ, alomatchoy.

agrimotor [ˈægrɪməutə] *n q.x.* traktor.

agrobiological [ˈægrəʊˈbaɪ-əʊlədʒɪkəl] *a* agrobiologiyaga oid.

agrobiologist [ægrəʊbaɪˈɔlədʒɪst] *n* agrobiolog.

agrobiology [ægrəʊbaɪˈɔlədʒi] *n* agrobiologiya (*oʻsimlikshunoslik va chorvachilikka bevosita aloqador umumiy biologik qonuniyatlarni oʻrganuvchi fan*).

agronomical [ˈægrəˈnɒmɪkəl] *a* agronomik.

agronomics [ˈægrəʊˈnɒmɪks] *n* agronomiya (*qishloq xoʻjaligi va ziroatchilik haqidagi fan*).

agronomist [əˈɡrɒnəmɪst] *n* agronom.

agronomy [əˈɡrɒnəmi] *n* qishloq xoʻjaligi, ziroatchilik.

agrostology [ˈægrəʊˈstɒlədʒi] *n* oʻtlarni oʻrgatadigan ilm (*fan*).

aground [əˈɡraʊnd] *a deng.* ogʻir ahvolda.

ague [ˈeɪɡju:] *n* bezgak; isitma.

ague-cake [ˈeɪɡju:keɪk] *n* uzoq davom etgan isitma natijasida jigarining kattalashishi.

ague-spleen [ˈeɪɡju:spli:n] *n tib.* bezgak natijasida kattalashgan jigar.

aguish [ˈeɪɡju:ʃ] *a* bezgakka oid.

ah |a:| *int.* a! eh!

aha [a:ha] *int.* aha!

ahead [əˈhed] *a* oldinga, oldinda; **get** ~ (*of*) oʻzib oʻtmoq ~ **of time** muddatdan ilgari; **go** ~ olgʻa, davom eting, boshlang.

ahcap [əˈhi:p] *adv* gʻaranda, toʻdada.

ahem [əˈhem] *int.* hm (*shubha, kinoya kabi maʼnolarni ifodalaydi*).

ahorse (back) [əˈhɔ:s (bæk)] *a* ot ustida; ot mingan.

ahull [əˈhʌl] *adv deng.* yelkanlari yigʻishtirilgan va kemaning yon tomoni shamolga qaratib qoʻyilgan holat.

aid [eɪd] **1.** *n* yordam, koʻmak; **2.** *v* yordam bermoq.

aide [eɪd] *n* yordamchi, maslahatchi.

aide-memoire [ˈeɪdmémwa:|fr] *n* xotira yozuvi.

aide-de-camp [ˈeɪddɔːka:|fr] *n* (*shaxsiy*) adʼyutant.

aiguille [ˈeɪɡwi:l] *n fr.* togʻ choʻqqisi.

ail [eɪl] *v* kasal boʻlmoq, betob boʻlmoq.

aileron [ˈeɪləron] *n* eleron (*samolyot qanotlarining burilishiga xizmat qiladigan qismi*).

ailing [ˈeɪlɪŋ] *a* betob; kasal.

ailment [ˈeɪlmənt] *n* kasallik, betoblik.

aim [eɪm] **1.** *n* maqsad, niyat; nishon; **take** ~ nishonga olmoq; **2.** *v* (*at*) nishonga olmoq.

aimless [ˈeɪmlɪs] *a* maqsadsiz, bemaqsad.

air | eə] **1.** *n* havo; **in the open** ~ ochiq havoda; **by** ~ samolyot bilan; **2.** *a* havoga oid; **2.** *v* 1) shamollatmoq, havosini yangilamoq.

Air Chief Marshal [ˈeəˈtʃiːfmɑːʃəl] *n* aviatsiya bosh marshali.

Air Command [ˈeəkəmə:nd] *n* aviatsiya qoʻmondoni (*BBC harbiy havo kuchlarining oliy tashkiliy birlashmasi*).

air exhauster [ˈeəˈɪgzəʊstə] *n* tortuvchi ventilyator.

Air Force [ˈeəfɔ:s] *n* harbiy havo kuchlari.

air liner [ˈeəˈlaɪnə] *n* 1) muayyan bir yoʻnalishda uchuvchi samolyot; 2) odam tashiydigan samolyot.

Air Marshal [ˈeəmə:ʃəl] *n* aviatsiya marshali.

air scout [ˈeəskaut] *n* *harb.* havo razvedkachisi.

air shaft [ˈeəʃɑ:ft] *n* ventilyatsiya shaxtasi.

air show [ˈeəʃəʊ] *n* aviatsiya koʻrgazmasi.

air speed [ˈeəspi:d] *n* samolyotning uchish tezligi.

air spraying [eəˈspreɪɪŋ] *n* havodan dori sepish.

air strip [eəstri:p] *n* uchish-qoʻnish maydoni.

air target [ˈeəstɑ:ɡɪt] *a* havodagi nishon.

air-hallon [ˈeəbɔːlu:n] *n* havo shari.

air-barrage [eəˈbærɑ:ʒ] *n* havoni toʻsish (*aerostatlar bilan*).

air-base [ˈeəbeɪs] *n* aviatsiya bazasi.

air-bed [ˈeəbed] *n* damlama matras.

air-bladder [ˈeəˈblædə] *n* suz-gich pufak (*balıqda*).

air-blast [ˈeəblɑ:st] *n* havo toʻlqinining birdan kuchayishi.

airborne [ˈeəbɔ:n] *a* havo yoʻli orqali tashiladigan.

air-brake [ˈeəbreɪk] *n* *tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*) tormoz.

air-brick [ˈeəbrɪk] *n* xom gʻisht.

air-bridge [ˈeəbrɪdʒ] *n* havo (*koʻprigi*) yoʻli.

air-brush [ˈeəbrʌʃ] *n* boʻyoq purkagich.

air-cell [ˈeəsel] *n* *amat.* oʻpka pufakchalari.

air-chamber [ˈeəˈtʃeɪmbə] *n* *tex.* havo kamerasi.

air-condition [ˈeəkənˈdeɪʃən] *v* havo haroratini bir xilda saqlamoq.

air-conditioner [ˈeəkənˈdɪʃənə] *v* konditsioner (*sovutgich*).

air-conditioning [ˈeəkəndɪʃənɪŋ] *n* havo haroratini bir xilda saqlash.

air-cooled [ˈeəˈku:ld] *a* havo yoʻli bilan sovutiladigan.

air-cooling [ˈeəˈku:lɪŋ] *n* havo bilan sovutish.

aircraft [ˈeəkra:ft] *n* samolyot.

aircraftsman [ˈɛkrɑ:ftmɒns] *n* aviatsiya oddiy askari (*Angliyada*).

air-cushion [ˈɛəˈkuʃən] *n* dam-lama yostiq.

Airedale [ˈɛədeɪl] *n* ɛldelteryer (*it zoti*).

air-engine [ˈɛərəndʒɪn] *n* samolyot motori.

airfield [ˈɛəfi:ld] *n* aerodrom.

air-frame [ˈɛəfreɪm] *n* uchish apparati korpusi.

air-freighter [ˈɛəfreɪtə] *n* yuk samolyoti.

air-gap [ɛəgæp] *n* zazor (*mas-huna qismlari oʻrtasidagi juda tor tirqish*).

air-gas [ˈɛəgæs] *n* yonuvchi aralashuna.

air-gauge [ˈɛəgɑ:ʒ] *n* monometr.

air-gun [ˈɛəgʌn] *n* havo kuchi bilan ishlaydigan miltiq.

air-hammer [ˈɛəˈhæmə] *n* pnevmatik bolgʻa.

air-hardening [ˈɛəhɑ:dnɪŋ] *n* metal.havoda chiniqtirish.

air-highway [ˈɛəˈhaɪwei] *n* havo yoʻllari trassasi.

air-hole [ˈɛəhəʊl] *n* 1) havo (*gaz*) chiqib turadigan tuynuk; 2) daryoning erigan *yoki* muzlanmay qolgan joyi; 3) *av.* havo oʻpqoni.

air-hostess [ˈɛəˈhəʊstɪs] *n* samolyotning styuardessasi.

airing [ˈɛəriŋ] *n* shamollatish va quritish.

air-jacket [ˈɛəˈdʒækt] *a* damlanadigan qutqarish nimechasi.

airless [ˈɛəlis] *a* 1) shamolsiz; 2) havosiz.

airline [ˈɛəleɪn] *n* havo yoʻli.

air-lock [ˈɛələk] *n* *tex.* havo probkasi.

air-mail [ˈɛəmeɪl] *n* havo poch-tasi.

airman [ˈɛəmən] *n* uchuvchi.

airmanship [ˈɛəmənʃɪp] *n* uchuvchilik mahorati.

air-map [ˈɛəmæp] *n* havo navi-gatsiyasining xaritasi.

air-mechanic [ˈɛəmikænik] *n* bortmexanik (*uchish apparati me-xanigi*).

air-minded [ˈɛəˈmaɪndɪd] *a* aviatsiya masalalarining farqiga bo-radigan.

air-monger [ˈɛəˈmʌŋgə] *n* xayolparast.

air-powered [ˈɛəˈpaʊəd] *a* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*).

air-photography [ˈɛəfɒtəgrəfi] *n* samolyotdan suratga olish va shu usulda olingan surat.

airplane [ˈɛəpleɪn] *n* *amer.* samolyot.

air-pocket [ˈɛəˈpɒkɪt] *n* *adv.* havo oʻpqoni.

airport [ˈɛəpɔ:t] *n* aeroport.

air-raid [ɛəreɪd] *n* havo hujumi.

air-route [ɛəru:t] *n* havo trassasi.

aircrew [ˈɛəskru:] *n* havo paragi.

airshed [ˈɛəʃed] *n* angar (*samolyot, vertolyot va sh.k. turadigan yoki taʼmirlaydigan maxsus bino*).

airship [ˈɛəʃɪp] *n* havo kemasi.

airsick [ˈeəsɪk] *a* havo kasalligidan azob chekayotgan.

airsickness [eəsɪknɪs] *n* havo kasalligi.

air-space [ˈeəspeɪs] *n* havodagi boʻshliq.

airstop [ˈeəstɒp] *n* odam tashiydigan vertolyotning stansiyasi *yoki* qoʻnish maydonchasi.

air-tight [ˈeətaɪt] *n* havo oʻtkazmaydigan.

air-to-air [ˈeətuəə] *n* bir samolyotdan ikkinchisiga oʻtish.

air-unit [ˈeəju:nɪt] *n* aviatsiya boʻlimi.

airway [ˈeəweɪ] *n* havo yoʻli.

airwoman [ˈeəwʊmən] *n* uchuvchi ayol.

airworthiness [ˈeəwə:ðɪnɪs] *n* samolyotning uchishga yaroqliligi.

airworthy [ˈeəwə:ðɪ] *a* uchishga yaroqli (*samolyot toʻgʻrisida*).

airy [ˈeəri] *a* havoga oid.

aisle [aɪl] *n* (*poyezd va teatrd*) oʻrindiqlar orasidagi yoʻlak.

ait [eɪt] *n* orolcha (*asosan dar-yoda*).

aitchbone [ˈeɪtʃbəʊn] *n* dumgʻaza suyagi.

ajar [ɔˈdʒɑ:] *a* yarim ochiq (*zich yopilmag*an).

akin [ɔˈkɪn] *a* qarindoshlikka oid.

alabaster [ˈæləbɑ:stə] *n* ganch, alebastr.

alack [ɔˈlæk] *int.* afsus! attang!

alacrity [ɔˈlækritɪ] *n* tayyor turish.

aland [ɔˈlənd] *adv* qirgʻoqda, quruqlikda.

alar [ˈeɪlə] *a* qanotli.

alarm [ɔˈlɑ:m] { **1.** *n* vahima; **2.** *v* qoʻrqitmoq.

alarm-clock [ɔˈlɑ:mklɒk] *n* qoʻngʻiroqli soat.

alarmist [ɔˈlɑ:mɪst] *n* vahimachi

alarm-post [ɔˈlɑ:mpəʊst] *n* trevoga vaqtida qoʻshin toʻplanadigan joy.

alarum [ɔˈleərəm] *n* soatning jiringlashi.

alas [ɔˈlæs] *int.* afsus, attang.

alb [ælb] *n* *cherk.* stixar (*dya-kolarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxoʻb kiyimi*).

Albanian [æfˈbeɪnjən] **1.** *n* 1) albaniyalik erkak *yoki* ayol; 2) alban tili; **2.** *a* Albaniyaga va albanlarga oid.

albatross [ˈælbətɾəs] *n* *zool.* albatros (*tumshugʻi uzun, katta dengiz qushi*).

albert [ˈælbət] *n* erkaklar soatining zanjiri.

albescent [ælbˈesənt] *a* rangi oqaradigan.

albinism [ˈælbɪnɪzəm] *n* teri yoki sochlarda ularga xos normal rang beruvchi pigmentning yetishmasligi.

albino [æˈbi:nəʊ] *n* albinos (*albinizm belgilari boʻlgan kishi, oʻsimlik yoki jonivor*).

Albion [ˈælbjən] *n* *cher.* Albion, Angliya.

albugo [æfˈbju:gou] *n* *tib.* koʻz dogʻi (*koʻzga tushgan oq*).

album [æfˈbəm] *n* albom.

albumen [ˈælbjumin] *n* *biol.* oqsil, oqsil modda.

albumin [ælbjumin] *n* kim. albumin.

albuminoid [ælbju: minoid] *a* oqsilsimon.

albuminous [ælbju: minəs] *a* albumin *yoki* oqsil xususiyatiga ega bo'lgan.

alburnum [ælbə: nəm] *n* po'st-loq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yanqi yog'och qismi*).

alchemical [ælf kemikəl] *a* alkimyoviy (*alkimyo o'rta asrlarda: oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantiruvchi "hikmat toshi" iksir izlash bilan shug'ullangan xayoliy fan*).

alchemist [ælkimist] *n* kimyogar.

alchemy [ælkimi] *n* alkimyo.

alcohol [ˈælkəhəl] *n* alkogol; spirt.

alcoholic [ˈælkə ˈhəlik] *a* 1) spirtga oid; 2) spirtli.

alcoholism [ˈælkəhəlizm] *n* alkogolizm (*ichkilik kasalligi*).

alcoholmeter [ˈælkəhə'mitə] *n* spirtomer.

Alcoran [ˈælkɔː rɑ:n] *n* Qur'on.

alcove [ˈælkəʊv] *n* tokcha (*tahmon*).

alder [ˈɔ: ldə] *n* bot. olxa (*daraxti va butasi*).

alderman [ˈɔ: ldəmən] *n* shahar boshqarmasining a'zosi.

aldermanry [ˈɔ: ldəmənri] *n* shahar boshqarmasidagi rayon.

ale [eil] *n* pivo.

aleatory [eiljətəri] *a* tasodifiy.

alee [ɔː li:] *a* shamol esayotgan tomonga.

ale-house [ˈeilhaus] *n* pivoxona.

alert [ɔː lə:t] **1.** *n* trevoga, tayyorlik; **2.** *a* hushyor.

ale-wife [ˈeilwaif] *n* pivoxona sohibasi.

alexandrite [ˈælig'zændrait] *n* min. aleksandrit (*qimmatbaho toshi*).

alfalfa [ælf fælf ə] *n* bot. beda.

alfresco [ælf frəskou] *a* ochiq havoda yuz beradigan.

alga [ælgə] *n* dengiz suv o'tlari (*o'simliklari*).

algae [ˈældʒi:] *n* dengiz to'li-qinlari.

algebra [ˈældʒibrə] *n* algebra.

Algerian [ælf'dʒiəriən] *a* Jazoirga va jazoirliklarga oid.

algid [ældʒid] *a* sovuq, izg'irin.

algorithm [ˈælgəriðm] *n* mat. algoritm.

alias [ˈeiliæs] *adv* boshqacha (*nomlanadigan*).

alibi [ˈælibai] *jur.* aybdor emasligiga dalil.

alidad, alidade [ˈælidæd, -deid] *n* tex. burchak o'lchagich.

alien [ˈeiljən] **1.** *n* chet ellik kishi; **2.** *a* begona, chet ellik.

alienable [ˈeiljənəbl] *a* *jur.* begonalashtiriladigan (*mulk to'g'risida*).

alienate [ˈeiljəneit] *v* begonalashtirmoq.

alienation [ˈeiljə nei:jən] *n* begonalashish.

alienee [eiljə'ni:] *n* *jur.* mulk foydasiga begonalashtirilayotgan shaxs.

alienism [ˈeɪljənɪzəm] *n* chet ellik kishining begona mamlakatdagi holati.

alienist [ˈeɪljənɪst] *n* ruhiy kasallik shifokori.

aliform [ˈeɪlɪfɔːm] *a* qanotsimon.

alight [əˈlaɪt] **1.** *v* 1) tushmoq (*tramvay va b.*); **2.** *a* kuydirilgan.

alighting [əˈlaɪtɪŋ] *n* kelib qoʻnish.

align [əˈlaɪn] *v* saf tortmoq, saf-lanmoq.

aligning [əˈlaɪnɪŋ] **1.** *n* bir qator qilib joylashtirish; **2.** *v* bir qator qilib joylashtirmoq.

alignment [əˈlaɪnmənt] *n* bir qator qilib joylashtirish.

alike [əˈlaɪk] *a* oʻxshash, ayni oʻsha.

aliment [ˈælmənt] *n* taom, ovqat.

alimentary [ˈæliˈmentəri] *a* oziq-ovqatga oid.

alimentation [ˈælmɪnɪˈteɪʃən] *n* ovqatlantirish.

alimony [ˈælməni] *n* aliment (*nafaqa*).

alive [əˈlaɪv] *a* 1) jonli; **more dead than** ~ na oʻlik, na tirik; 2) te-tik.

alkali [ˈælkəlaɪ] *n kim.* ishqor.

alkaline [ˈælkəlaɪn] *a kim.* ishqorli.

alkaloid [ˈælkələɪd] *n kim.* alkaloid.

all [ˈɔːl] *a* barcha; **first of** ~ eng avvalo; **most of** ~ hammasidan koʻra.

allay [əˈleɪ] *v* tinchlantirmoq, ovutmoq.

allegation [ˈæləʒeɪʃən] *n* tasdiqlash (*dahilsiz*).

allege [əˈledʒ] *v* tasdiqlamoq.

allegedly [əˈledʒdli] *adv* goʻyo, goʻyoki.

allegiance [əˈliːdʒəns] *n* sodiqlik.

allegorical [ˈæliˈgɔːrɪkəl] *a* kinoyalı.

allegory [æliˈgɔːri] *n* kinoya.

allevation [əˈliːvɪˈeɪʃən] *n* yengillashtirish.

alleviate [əˈliːvɪeɪt] *v* yengillashtirmoq.

alley [ˈæli] *n* xiyobon.

alliance [əˈlaɪəns] *n* 1) ittifoq, tarafdor; 2) qarindoshlik.

allied [əˈlaɪd] *a* ittifoqdosh.

allocate [ˈæləukeɪt] *v* 1) joylashtirmoq; 2) tayinlamoq; 3) ajratmoq.

allocution [ˈæləuˈkjuːʃən]

1. *n* 1) taqsimot; 2) tayinlash; **2.** *a* pand-nasihatli nutq, murojamat.

allot [əˈlɒt] *v* taqsimlamoq, boʻlmoq.

allotment [əˈlɒtmənt] *n* taqsimlash, boʻlish.

allow [əˈlau] *v* 1) ijzat bermoq; 2) bermoq; ~ **time** vaqt bermoq.

allowance [əˈləʊəns] *n* ruxsat; ijzat.

alloy [əˈlɔɪ] *n* (*qandaydir metalning*) qotishmasi.

allude [əˈluːd] *v* aytilib oʻtmoq.

allure [əˈljuː] *v* maftun etmoq.

allurement [əˈljuːmənt] *n* qiziqtiradigan (*havasini keltiradigan*) narsa.

alluring [ɔˈljʊərɪŋ] *a* qiziqtiradigan.

allusion [ɔˈluːʒən] *n* 1) luqma; 2) surgun.

ally [ˈælaɪ] **1.** *n* ittifoqdosh; **2.** *v* birlashtirmoq.

almanac [ˈɔːlmənək] *n* taqvim; almanax.

almighty [ˈɔːlmaiti] *a* qudratli, qodir.

almond [ˈɑːmɒnd] *n* bot. bodom (*daraxti*).

almost [ˈɔːlmoust] *adv* deyarli.

alms [ɑːmz] *n* xayir-ehson.

alms-house [ˈɑːmzhaus] *n* gʻaribxona.

aloft [ɔˈlɔft] *adv* yuqorida, tepada.

alone [ɔˈləʊn] *a* yolgʻiz; **let** ~ tinch qoʻymoq; oʻz xoliga qoʻymoq.

along [ɔˈlɒŋ] *prep.* boʻylab, yoʻqalab.

alongside [ɔˈlɒŋsaɪd] *adv* yonma-yon, bir qatorda; yaqinida.

aloof [ɔˈluːf] *adv* nariroqda, chetroqda.

aloud [ɔˈlaʊd] *adv* baland, ovoz chiqarib.

alphabet [ˈælfəbɪt] *n* alifbo.

alphabetical [ˈælfəbetikəl] *a* alifbo tartibida.

already [ɔːlˈredi] *adv* allaqachon.

also [ˈɔːlsəʊ] *adv* shuningdek, ham.

altar [ˈɔːltə] *n* mehrob.

alter [ˈɔːltə] *v* oʻzgartirmoq, qayta yasamoq.

alteration [ɔːltəˈreiʃən] *n* oʻzgartirish.

altercate [ɔːltəˈkeɪt] *v* janjallashib qolmoq; gap talashmoq.

altercation [ˈɔːltəˈkeɪʃən] *n* janjal, mojaro.

alternate [ɔːlˈtəːnɪt] **1.** *a* navbati bilan qilinadigan; **2.** *v* galmagal qilmoq.

alternating [ɔːlˈtɛnɛɪtɪŋ] *a* almashib turadigan.

alternation [ɔːltəˈneiʃən] *n* galmagal qilish.

alternative [ɔːlˈtəːnətɪv] **1.** *n* ikki yoʻldan birini tanlash; **2.** *a* ikki yoʻldan birini tanlashni taqozo etadigan.

although [ɔːldəʊ] *conj* garchi; ... ga qaramay.

altitude [ˈæltɪtjuːd] *n* balandlik.

altogether [ˈɔːltəˈgeðə] *adv* butunlay; toʻla, tamoman.

alum [ˈæləm] *n* achchiqtosh.

aluminium [ˈæljʊːmɪnjəm] *n* alyuminiy.

alumnus [ɔˈlʌmnəs] *n* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*).

always [ˈɔːlwəz] *adv* doimo.

am [æm] **to be** feʻlining hozirgi zamonda birinchi shaxs uchun birlik sonda ishlatiladigan anqlik maylidagi shakli.

amalgamate [ɔˈmælgəmeɪt] *v* birlashtirmoq.

amalgamation [ɔˈmælgəmeɪʃən] *n* aralashish.

amass [ɔˈmæs] *v* yigʻmoq, toʻplamoq.

amassment [ɔˈmæsmənt] *n* uyum, gʻaram.

amateur [ˈæmətəː] *n* havaskor.

amateurish [ˈæməˈtɔːriʃ] *a* havaskorga oid.

amatory [ˈæmətəri] *a* ishq-muhabbatga oid.

amaze [əˈmeɪz] *v* taajjublantirmoq.

amazed [əˈmeɪzd] *a* hayratlangan.

amazement [əˈmeɪzmənt] *n* taajjublanish.

amazing [əˈmeɪzɪŋ] *a* hayratlanarli.

ambassador [æmˈbæsədə] *n* elchi.

amber [ˈæmbə] **1.** *n* qahrabo; **2.** *a* qahraboga oid.

ambient [ˈæmbiənt] *a* har tomondan oʻrab olgan.

ambiguity [ˌæmbɪˈɡjuː(ɪ)tɪ] *n* 1) ishora, piching, shama, kinoyali (*ikki maʼnoli*) gap; 2) noaniqlik, nomaʼlumlik; noaniq (*gap, fikr*) narsa (*about, concerning*).

ambiguous [æmˈbigjuəs] *a* ikki maʼnoli.

ambition [æmˈbiʃ(ə)n] *intilish*.

ambitious [æmˈbiʃəs] *a* shuhratparast.

ambler [ˈæmblə] *n* yoʻrgʻa (*ot*).

ambulance [ˈæmbjuləns] *n* tez yordam mashinasi.

ambulatory [ˈæmbjulətəri] *a* 1) koʻchma; 2) ambulatoriyaga oid.

ambush [ˈæmbʊʃ] *n* pistirma.

amdidexter [ˈæmbɪˈdekster] *n* ikki qoʻlini ham teng ishlatuvchi odam.

ameliorate [əˈmiːljəreɪt] *v* yaxshilamoq.

amelioration [əˈmiːljəˈreɪʃən] *n* yaxshilash.

amen [ˈɑːmən] *int.* omin.

amenable [əˈmiːnəbl] *a* javobgar.

amend [əˈmend] *v* yaxshilamoq, tuzatmoq.

amendable [əˈmendəbl] *a* tuzaladigan.

amended [əˈmendɪd] *a* tuzatilgan.

amendment [əˈmendmənt] *n* (*xatoni*) tuzatish, yaxshilash.

amends [əˈmendz] *n* qoplash.

amenity [əˈmiːnɪti] *n* yoqimlilik, mehribonlik.

amenta [əˈmentə] *n pl tib.* aqli zaif kishi.

amentia [əmenʃiə] *n* aqli zaiflik.

amentum [əˈmentəm] = **amenta**.

amerce [əˈmɜːs] *v* jarima solmoq.

amercement [əˈmɜːsmənt] *n* jarima solish.

American [əˈmerikən] **1.** *n* amerikalik; **2.** *a* amerikaga oid.

Americanism [əˈmerikənɪzəm] *n* amerikanizm.

Americanize [əˈmerikənaɪz] *v* amerikalashtirish.

amethyst [ˈæmiθɪst] *n* ametist (*qimmatbaho tosh*).

amethystine [ˈæmiθɪstəɪn] *a* ametistga oid.

amiability [ˈeɪmjəˈbɪlɪti] *n* mehribonlik.

amiable [ˈeɪmjəbl] *a* xushmuomala.

amianthus [æmiˈænθəs] *n* *min* togʻ zigʻiri.

amicability [ˈæmikəˈbɪlɪti] *n* doʻstona munosabat.

amicable [æmɪkəbl̩] *a* do'stona.
amid [ɪˈmɪd] *prep.* o'rtasida (*bi-ror narsaning*).

amidar [æmɪdɔ] *n* soliq yig'uv-chi inspektor.

amide [ɪˈmaɪd] *n pl kim.* amidlar.

amidships [ɪˈmɪdʃɪps] *adv deng.* kemanding o'rtasida.

amidst [ɪˈmɪdst] *prep.* orasida, o'rtasida.

amiss [əˈmɪs] *adv* adashib.

amity [ˈæmɪti] *n* do'stlik.

ammeter [æmɪtə] *n el.* ampmetr.

ammonal [æmənəl] *n* ammonal (*portlovchi modda*).

ammonia [əˈmɒnjə] *n kim.* ammiak.

ammoniac [ɪˈmɒniæk] *a kim.* ammiakka oid.

ammoniacal [ɪˈmɒniækəl] *a* ammiakaga oid.

ammonite [ɪˈæmənait] *n geol.* ammonit.

ammonium [ɪˈmɒnjəm] *n kim.* ammoniy.

ammunition [ˈæmjʊˈnɪʃən] **1.** *n* o'q-dorilar; **2.** *v* o'q-dori bilan ta'minlamoq.

amnesia [æmˈni:zjə] *n* es-hu-shini yo'qotish.

amnesty [ˈæmnɪsti] **1.** *n* gunohidan o'tish; jazodan ozod qilish; **2.** *v* gunohidan o'tmoq; jazodan ozod qilmoq.

amoeba [əˈmi:bə] *n zool.* (*pl -ae*) *zool.* amyoba.

amoebae [ɪˈmi:bi:] *pl zool.* amyobalar.

among, amongst [əˈmʌŋ, əˈmʌŋst] *prep.* (*uch va undan ortiq*

narsa yoki kishilar uchun ishlatiladi) o'rtasida, orasida.

amoral [əˈmɔrəl] *a* axloqsiz, beadab, odobsiz.

amorous [ˈæmərəs] **1)** oshiq; **2)** tez oshiq bo'ladigan.

amorousness [ˈæmərəsnɪs] *n* hadeb sevaverish.

amorphous [ɪˈmɔ:fəs] *a* shaklsiz.

amort [ɪˈmɔ:t] *adv* o'lik, jonsiz.

amortization [ɪˈmɔ:tɪzɪʃ(ə)n] *n yur.* qarzni to'lash.

amortize [ɪˈmɔ:təɪz] *v yur.* qarzni to'lamoq.

amount [əˈmaʊnt] **1.** *n* 1) son, miqdor; **a large ~ of work** ko'p ish; **2)** umumiy son, miqdor, yig'indi, jami, hammasi, majmui; **2.** *v* (*miqdorni, summani*) tashkil qilmoq.

amour [ɪˈmʊə] *n* sevgi (*muhabbat*).

amourette [ˈæmuɔˈret] *n* ishqiy fitnachi.

amour-propre [ˈæmuɔˈprɔːpʁ] *fr. n* ta'bi noziklik.

amperage [ˈæmpˈpeɪrɪdʒ] *n el.* elektr tok kuchi.

ampere [ˈæmpɪə] *n fiz.* amper (*elektr kuchi birligi*).

ampereметр [ˈæmpɪəˈmi:tə] *n* ampmetr.

ampersand [ˈæmpəsænd] *n* (&) belgisi.

Amphibia [æmˈfɪbiə] *n pl zool.* ham yerda, ham quruqlikda yashovchilar.

amphibian [æmˈfɪbiən] *a* suvda va quruqlikda yashovchi.

amphibious [æmˈfɪbiəs] *a* suvda ham quruqlikda ham yashovchi.

amphibology [ˈæmfɪbələdʒi] *n* ikki ma'noni ifodalovchi ibora.

amphitheatre [ˈæmfɪˈθiətə] *n* amfiteatr (*balandlab boruvchi o'rinarlar*).

amphora [ˈæmfərə] *n* (*pl -ae*) ko'zasimon qo'shquloq sopol idish (*qadimgi Yunonistonda*).

ample [æmpl] *a* mo'l-ko'l, yetarli, ko'p.

amplification [ˈæmplɪfɪˈkeɪʃən] *n* ko'paytirish, kengaytirish.

amplifier [ˈæmplɪfaɪə] *n* kuchaytirgich.

amplify [ˈæmplɪfaɪ] *v* ko'paytirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq, keng yoymoq.

amplitude [ˈæmplɪtju:d] *n* fiz. amplituda.

amply [ˈæmplɪ] *adv* serob, to'kin-sochin; yetarli.

ampoule [ˈæmpu:l] *n* ampula (*dori va shu kabi quyib og'zi payvandlangan naycha*).

amputate [æmpjuteɪt] *v* kesib tashlamoq.

amputation [ˈæmpjuˈteɪʃən] *n* kesib tashlash.

amputee [ˈæmpjuˈti:] *n* qo'li yoki oyog'i kesilgan odam.

amuck [əˈmʌk] *adv* jahli chiqqan.

amulet [ˈæmjulɪt] *n* tumor.

amuse [əˈmju:z] *v* vaqtini xush qilmoq.

amusement [əˈmju:zmənt] *n* o'yin-kulgi.

amusing [əˈmju:zɪŋ] *a* kulgili.

amyloid [æmɪləɪd] **1.** *n* amiloid; **2.** *a* kraxmalli; kraxmalga oid.

an [æn, ən] *gram.* unli tovushlar bilan boshlanadigan so'zlardan oldin ishlatiladigan noaniq artiklning shakli.

ana [a:nə] *n* xotira to'plami.

anaemia [əˈni:mjə] *n* tib. kamqonlik.

anaemic [əˈni:mɪk] *a* tib. qoni kam, kamqon.

analects [ˈænələkts] *n* *pl* adabiy to'plam.

analgesic [ˈænælˈdʒesɪk] **1.** *a* og'riqni qoldiradigan; **2.** *n* og'riqni qoldiradigan dori.

analytical [ˈænəˈlɪtɪkəl] *a* tahlilli.

analog [ˈænələɔŋ] *n* analog (*o'xshashlik, o'xshash narsa*).

analogical [ˈænəˈlədʒɪkəl] *a* analogiyaga asoslangan.

analogous [əˈnələgəs] *a* o'xshash.

analogy [əˈnələdʒi] *n* o'xshashlik.

analyse [ˈænəlaɪz] *v* tahlil qilmoq.

analyses [əˈnələsɪ:z] *n* *pl* tahlil (*qilish*).

analysis [əˈnələsɪs] *n* (*pl -ses*) tahlil.

analyst [ˈænəlist] *n* 1) analitik (*analiz bilan shug'ullanuvchi mutaxassis*); 2) sharhlovchi.

analytics [ˈænəˈlɪtɪks] *n* *pl* tahlil usulini ishlatish.

anamnesis [ˈænæmˈni:sɪs] *n* eslash (*esga olish*).

anamorphosis [ˈænəˈmɔ:fəˈsɪs] *n* predmetning buzilgan tasviri.

ananas [əˈnɑ:nəs] *n bot.* ananas (*o'tsimon tropik o'simlik va uning tomoshaqovoqqa o'xshash xushbo'y shirador hosili*).

anapaest [ˈænəpi:st] *n adab.* anapest (*urg'u ikki urg'usiz bo'g'indan keyingi bo'g'inga tushadigan uch hijoli she'riy turoq*).

anaplasty [ˈænəplæsti] *n tib.* plastik jarrohlik.

anarchism [ˈænəkizm] *n* anarxizm (*har qanday davlat hokimiyatini va siyosiy kurashni inkor etuvchi, revolyutsion proletariyat diktaturasiga qarshi bo'lgan reaksiya mayda burjuva oqimi*).

anarchist [ˈænəkist] *n* anarxist (*anarxizm tarafdori*).

anarchy [ˈænəki] *n* anarxiya (*hokimiyatsizlik*).

anarĭhical [ˈæna:kikəl] *a* anarxiyaga oid.

anathema [ˈnæθimə] *n* la'natlash (*qarg'ish*).

anathematize [ˈnæθimətaiz] *v* la'nat o'qimoq (*qarg'amoq*).

anatomic [ˈænətəmik] *a* anatomiyaga oid (*anatomik*).

anatomical [ˈænətəmikəl] *a* anatomiyaga oid.

anatomist [ˈnætəmist] *n anat.* anatomiya olimi.

anatomize [əˈnætəmaiz] *v*
1) yorib tekshirmoq (*o'tikni*);
2) tahlil qilmoq.

anatomy [əˈnætəmi] *n* anatomiya (*tirik organizmlarning tuzilishi haqidagi fan*).

anbury [ˈænbəri] *n* chipqon, gazak olgan yara.

ancestor [ˈænsistə] *n* ajdod, avlod.

ancestral [ænˈsestrəl] *a* meros (*bo'lib*) qolgan.

ancestry [ˈænsistri] *n* ajdod, avlod.

anchor [ˈæŋkə] *n* langar; **cast** ~ langar tashlamoq.

anchorage [ˈæŋkəridʒ] *n* langar tashlab turish.

anchored [ˈæŋkəd] *a* langar tashlaydigan.

anchoress [ˈæŋkəris] *n* tarki dunyo qilgan (*ayol*).

anchoret [ˈæŋkərət] *n* tarki dunyo qilgan (*erkak*).

anchovy [ˈæntʃəvi] *n* kamsa (*mayda dengiz balig'i*).

ankylosis [ˈæŋkaiˈləusis] *n tib.* ankiroz (*bo'limlar harakatsizligi*).

ancient [ˈeinʃənt] *a* qadimgi, qadimiy.

ancillary [ænˈsiləri] *a* yordamchi; ko'makchi.

and [ænd] *conj.* va, ham; esa.

andiron [ˈændəiən] *n* kamin-dagi o'tin qo'yish uchun yasalgan temir taglik.

androgynous [ænˈdrədʒinəs] *n bot.* ikki jinsli.

anecdote [ˈænikdout] *n* latifa.

anecdotic [ˈænikdətik] *a* kulguli.

anemograph [ˈænemægra:f] *n* anemograf.

anemometer [æniˈmɒmitə] *n* anemometr (*havo va gaz oqimi tezligini o'lchaydigan asbob*).

anemone [əˈneməni] *n bot.* ayiqtovon (*yovvoyi gullilar oilasiga mansub o'tlar*).

anemoscope [əˈneməskəʊp] *n* anemoskop (*shamolning yoʻnalishini koʻrsatadigan asbob*).

aneroid [ˈænəroɪd] *n* barometraneroid.

aneurism [ˈænjuərizm] *n* tib. arteriyaning bir yeridagi kengayish.

anew [əˈnjuː] *adv* yana, qaytadan.

anfractuous [ænˈfræktʃuəs] *a* egri-bugri.

angary [ˈæŋgəri] *n* urushuvchi tomonlarning bosib olish huquqi.

angel [ˈeɪndʒəl] *n* farishta.

angelic [ænˈdʒelɪk] *a* farish-talarga (*malaklarga*) oid.

anger [ˈæŋgə] **1.** *n* gʻazab; **2.** *v* gʻazablanmoq.

Angevin [ˈændʒɪvɪn] *a* tar. anjuyga oid.

angina [ænˈdʒaɪnə] *n* angina.

angle I [ˈæŋɡl] *n* mat. burchak;

angle II [ˈæŋɡl] **1.** *n* qarmoq; **2.** *v* baliq ovlamoq.

angler [ˈæŋɡlə] *n* baliqchi.

angleworm [ˈæŋlwɜːm] *n* chuvalchang.

Anglican [ˈæŋɡlɪkən] **1.** *a* 1) anglikan (*protestant dinining Angliyada ustun boʻlgan turiga oid*); 2) amer. Angliyaga va inglizlarga oid; **2.** *n* anglikan mazhabidagi shaxs.

Anglicist [ˈæŋɡlɪsɪst] *n* inglizshunos.

Anglicize [ˈæŋɡlɪsaɪz] *v* inglizchalashtirish.

Anglistics [æŋˈɡlɪstɪks] *n* pl inglizshunoslik.

Anglomania [ˈæŋɡləʊˈmeɪnjə] *n* inglizparastlik.

Anglophobia [ˈæŋɡləʊˈfəʊbjə] *n* Angliyaga va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam.

Anglo-Saxon [ˈæŋɡləʊˈsæksən] **1.** *a* anglo-saksonlarga oid; **2.** *n* qadimgi ingliz tili.

angola [ˈæŋˈɡəʊlə] *n* angoriy mushuk.

angora [æŋˈɡɔːrə] *n* angoriy mushuk.

angrily [ˈæŋrɪli] *adv* gʻazabli, gʻazablangan.

angry [ˈæŋɡrɪ] *a* badjahl; **to be ~** jahli chiqmoq.

anguine [ˈæŋɡwɪn] *a* ilonsimon.

anguish [ˈæŋɡwɪʃ] *n* qattiq ogʻriq.

angular [ˈæŋɡjʊlə] *a* burchakli.

angularity [ˈæŋɡjuˈlærɪti] *n* qirradorlik.

anhydride [ænˈhaɪdraɪd] *n* kim. angidrid.

anhydrite [ænˈhaɪdraɪt] *n* min. angidrit (*kaltsiy sulfat, koʻpincha oq rangli mineral*).

anhydrous [ænˈhaɪdrəs] *a* kim. suvsiz.

anil [ˈænil] *n* nil boʻyogʻi.

anile [ˈeɪnəl] *a* 1) eskirib qolgan; 2) esi past.

anility [æˈnɪlɪti] *n* keksalik, qarilik.

animadversion [ˈænimædʒvərʃən] *n* tanbeh, tanbeh berish.

animadvert [ˈænimædʒvɜːt] *v* tanqid qilmoq, tanbeh bermoq.

animal [ˈæniməl] **1.** *n* hayvon; **2.** *a* hayvonlarga oid; ~ **husbandry**

chorvachilik; ~ **products** chorvachilik mahsulotlari.

animalcule [ˈæniˈmælkju:l] *n* mikroskop orqali koʻriladigan jonivor.

animalism [ˈæniməlizm] *n* *filos.* 1) animalizm (*har bir narsaning ruhi, joni bor degan eʼtiqod*); 2) sezgirlik qobiliyati.

animate [ˈænimɪt] **1.** *n* 1) tirik; 2) jonli; **2.** *v* jon kiritmoq.

animation [ˈæniˈmeɪʃən] *n* jonlanish.

animism [ˈænimizm] *n* *filos.* animizm (*ibtidoiy xalqlarda: har bir narsaning joni, ruhi bor degan eʼtiqod*).

animosity [ˈæniˈmɒsɪti] *n* dushmanlik.

animus [ˈæniməs] *n* 1) notoʻgʻri tushuncha; 2) dushmanlik.

anise [ˈænis] *n* arpabodiyon (*oʻsimlik*).

anker [ˈæŋkə] *n* anker (*suyuqlik oʻlchovi*).

ankle [ˈæŋkl] *n* toʻpiq suyagi.

ankle-joint [ˈæŋklˈdʒɔɪnt] *n* boldir suyagi bilan tovon suyagi.

anklet [ˈæŋklɪt] *n* oyoq bilakuzugi.

anna [ˈænə] *n* anna (*hind puli=1/16 rupiya*).

annalist [ˈænəlɪst] *n* tarixni yozib boruvchi (*solnomanavis*).

annals [ˈænz] *n pl* yilnoma.

anneal [ˈɔːni:l] *v* *tex.* yumshatmoq; qizdirmoq.

annealing [ˈɔːni:lɪŋ] *n* *tex.* yumshatish.

annelida [ˈɔːnelɪdə] *n pl* *zool.* boʻgʻim-boʻgʻim qurtlar (*chuvatchanglar*).

annex [ˈæneks] **1.** *n* qoʻshimcha, ilova (*hujjat*); **2.** *v* birlashtirmoq.

annexation [ˈænekˈseɪʃən] *n* birlashtirish.

annexe [ˈæneks] *n* qoʻshish.

annihilate [ˈɔːnaɪəleɪt] *v* yoʻq qilmoq.

annihilation [ˈɔːnaɪəˈleɪʃən] *n* yoʻq qilish.

anniversary [ˈæniːvəsəri] *n* yillik (*yubiley*).

Anno Domini [ˈænoʊˈdɒmɪnaɪ] *adv* *lot.* yangi (*asr*) era.

annotate [ˈænəuteɪt] *v* 1) izoh bermoq; 2) annotatsiya yozmoq.

annotation [ˈænəuteɪʃən] *n* annotatsiya (*asar haqidagi qisqa maʼlumot, uning qisqa mazmuni*).

announce [ˈɔːnaʊns] *v* xabar qilmoq, eʼlon qilmoq.

announcement [ˈɔːnaʊnsmənt] *n* eʼlon, xabar.

announcer [əˈnaʊnsə] *n* suxandon, notiq.

annoy [ˈɔːnoɪ] *v* 1) xafa qilmoq; 2) jonga tegmoq.

annoyance [ˈɔːnoɪəns] *n* 1) jahli chiqish; 2) oʻkinch (*alam*).

annoyed [ˈɔːnoɪd] *a* gʻazablangan, achchiqlangan.

annoying [ˈɔːnoɪɪŋ] *a* biror narsani qoʻzgʻaydigan.

annual [ˈænjuəl] **1.** *n* yilda bir marta chiqadigan toʻplam; **2.** *a* bir yilda bir marta boʻladigan (*oʻtkaziladigan*).

annually [ˈænjʊəli] *adv* har yil(i); har yilda; yil sayin.

annuitant [əˈnju:ɪtənt] *n* har yilgi (*yillik*) daromadni oladigan kishi.

annuity [əˈnju:ɪti] *n* yillik daromad.

annul [əˈnʌl] *v* 1) bekor qilmoq; 2) yoʻq qilmoq.

annular [ˈænjʊlə] *a* halqasi-mon.

annulary [ˈænjʊləri] *n* soʻfi barmoq (*jimjiloq yonidagi, toʻrtinchi barmoq?*).

annulate [ˈænjuleɪt] *a* halqali.

annulet [ˈænjulɪt] *n* halqacha.

annulment [əˈnʌlmənt] *n* bekor qilish; yoʻq qilish.

annunciate [əˈnʌnsieɪt] *v* eʻlon qilmoq.

annunciation [əˈnʌnsɪˈeɪʃən] *n* hammaga eʻlon qilish.

annunciator [əˈnʌnʃieɪtə] *n* xabar beruvchi asbob.

anode [ˈænoʊd] *n* *el.* anod (*musbat elektron*).

anodyne [ˈænoʊdaɪn] **1.** *n* ogʻriqni qoldiradigan dori; **2.** *a* ogʻriqni qoldiradigan.

anoint [əˈnoɪnt] *v* surtmoq, surkamoq.

anointment [əˈnoɪntmənt] *n* surkash (*teriga moyini va b.*).

anomalous [əˈnɒməˈlɪstɪk] *a* normadan chetga chiqqan; notoʻgʻri.

anomalous [əˈnɒmələs] *a* notoʻgʻri, xato.

anomaly [əˈnɒməli] *n* normadan chetga chiqish.

anon [əˈnɒn] *adv* hozir, tezda, darrov.

anonym [ˈæɪnɒnɪm] *n* anonim (*nomini yashirgan muallif*).

anonymity [ˈæɪnɒnɪmɪti] *n* anonimlik (*nomsizlik*).

anonymous [əˈnɒnɪməs] *a* nomasiz.

anopheles [əˈnɒfɪliːz] *n* anofales, bezgak chivini.

anorak [ˈænræk] *n* kapyushonli kurka (*anorak*).

anorexia [ˈænrɪˈeksɪə] *n* tib. ishtahaning yoʻqligi.

anorganic [ˈænrɔːɡæɪnɪk] *a* noorganik.

another [əˈnʌðə] *pron. ind.* 1) boshqa; **one** ~ bir-birini; 2) yana bitta (*biri*).

anourous [əˈnuərəs] *a* zool. dumsiz, quyruqsiz.

anoxaemia [ˈænrɔkˈsɪːmiə] *n* qonda kislorodning yetishmasligi.

anserine [ˈænsərəɪn] **1**) gʻozga oid; 2) aqlsiz.

answer [ˈɑːnsə] **1.** *n* javob; **2.** *v* javob bermoq; ~ **in the affirmative** ijobiy javob bermoq.

answerable [ˈɑːnsərəbl] *a* 1) javob qaytarsa boʻladigan; 2) (*masʼul*) javobgar (*kimningdir oldida*).

ant [ænt] *n* chumoli.

antacid [ˈæntˈæsɪd] *a* tib. kislotani neytrallashtiruvchi.

antagonism [æntˈtæɡənɪzm] *n* 1) raqiblik; 2) dushmanlik.

antagonist [æntˈtæɡənɪst] *n* raqib; dushman; gʻanim.

antagonistic [æntˈtæɡəˈnɪstɪk] *a* dushmanlik ruhidagi.

antagonize [æn' tægənaiz] **1.** *n* qarshi harakat; **2.** *v* qarshi harakat qilmoq.

antarctic [æn'ta:ktik] *a* Antarktidağa oid.

ant-bear [æntbeə] *n zool.* chumolixo'r (*hayvon*).

ant-eater ['ænt' i:tə] *n* chumolixo'r (*hayvon*).

antebellum [ænti'beləm] *a lot.* urushdan oldingi.

antecedent [ænti'si:dənt] *a* oldin bo'lgan.

antecedent [ænti' si:d(ə)nt] **1.** *n ko'p.shakl.* o'tgan umr, o'tinish; **my** ~s mening o'tinishim; **2.** *a* oldingi, avvalgi; burungi, o'tgan.

antechamber [ænti' (f'eimbə] *n* dahliz.

adabiyot *n* literature; **Men~ga qiziqaman**. I am interested in literature; **badiiy** ~ belles-lettres, fiction; **jahon ~i** world literature; ~ **to'garagi** literary circle.

adabiyotshunos *n* specialist in literature, literary critic; ~**lik tarixi** the history of literature.

adabiyotshunoslik *n* history of literature, literary criticism.

adabiyotchi *n* writer, man of letters, literature teacher.

adahli (odobli) *a* well-bred, courteous; tactful, polite, modest, well mannered.

adabilik *n* breeding, good breeding, civility, politeness.

adabsiz *a* ill-bred, unmannerly, tactless; impolite, incivil, rude.

adabsizlik *n* indecent, improper, ill breeding, rudeness, unmannerliness, impoliteness.

adad *n* 1) number; 2) date; 3) number(s), quantity; 4) figure; 5) piece, amount.

adadsiz *a* countless, innumerable, numberless.

adasb *n* namesake; **u menga ~** he is my namesake.

adashish *n* mistake, error, mistaking, erring.

adashmoq *v* roam, wander, lose one's way, lose one's path, make a mistake, become lost.

adashtirmoq *v* mislead; lead astray; cause to stay.

adib *n* writer, man of letters, author.

adiba *n (lady)* writer, authoress.

adiblik *n* authorship.

adip *n* edging; ~ **tutmoq** edge, trim.

adiplamoq *v* edge, trim.

adir *n* hill; knoll, hillock, a small mountain, slope.

adirli *a* hilly.

adiya *n* justice; ~ **vazirligi** The Ministry of Justice.

administrator *n* administrator.

admiral *n* admiral; **flot ~i** admiral of the Fleet.

admirallik *n* post of admiral, admiralty.

ado *n* fulfilment; completion; ~ **etmoq** carry out, fulfil; ~ **qilmoq** fulfill, complete.

adolat *n* 1) justice; 2) truth; correctness; ~ **bilan** with justice; ~ **sudini amalga oshirish** dispensation of justice.

adolatli *a* just, fair, right, correct; ~ **hukm** fair decision; ~ **kishi** a just man.

adolatparvarlik *n* justice; ~ **bilan** justly.

adolatsiz *a* unjust, unfair, (*socially*) wrong.

adolatsizlik *n* injustice, unfairness.

adovat *n* enmity, hostility, animosity.

adovatli *a* hostile, enimical.

adres *n* address; ~ **stoli** address bureau; ~ **daftari** directory; ~**iga xat jo'natmoq** address a letter.

adresat *n* addressee.

advokat *n* advocate, lawyer, barrister, attorney (*amer.*).

advokatura *n* legal profession; the bar.

adyol *n* blanket; **jun** ~ wool blanket.

adyutant *n* aide-de-camp; military assistant.

aerodinamika (*havoning ha-rakati*) *n* aerodynamics.

aerodrom *n* airfield, aerodrome.

aeroklub *n* flying club.

aeromexanika *n* aeromechanics.

aeroport *n* airport.

aerostat *n* balloon.

afandi *n* 1) gentleman; 2) teacher, mister.

affiks *n* affix; **so'z yasovchi** ~ word-building (*derivational*) affix; **so'z o'zgartiruvchi ~lar** word-changing affixes.

afisha *n* bill, placard, poster; **teatr ~si** play bill.

aforistik *a* aphoristic.

aforizm *n* aphorism.

afrikalik *n* African.

afsona *n* 1) legend; 2) fable, tale.

afsonaviy *a* legendary; ~ **qahramon** legendary hero.

afsonachi *n* tale-teller, storyteller, bard, teller of legends.

afsun *n* sorcery, witchcraft.

afsungar *n* magician, sorcerer.

afsunlamoq *v* conjure, practise witchcraft; concoct.

afsus *n* regret, grief, pity, vexation; ~ **qilmoq** regret (*smth.*).

afsuski *adv* it is a pity, unfortunately.

afsuslanmoq *v* regret (*smth.*); deplore (*smth.*); be sorry (*for smb.*).

afsusli *a* sorrowful, regrettable, lamentable, deplorable.

aft (*yuz, chehra*) *n* face, facial, appearance; ~ **idan** apparently, evidently; ~ **ini burishtirmoq** twist one's face.

aft-angor *n* appearance; look(s).

aftidan *adv* apparently, seemingly.

afv *n* forgiveness, pardon; absolution, excuse; ~ **etmoq** excuse.

afyun (*nasha*) *n* opium, opiate.

afzal *a* better; best, preferable; ~ **ko'rsatmoq** prefer (*to*).

afzallik *n* advantage; preference, superiority.

afg'on *n* Afghan; ~ **tili** the Afghan language.

afg'oniy *n* 1) Afghan; 2) Afghan (*monetary unit in Afghanistan*).

afg'oncha *a* Afghan; in Pashto; ~ **raqs** afghan dance; ~ **gaplashmoq** speak Afghan.

agar(da) *conj* if, in case; whether; but for; even if; ~ **taklif sizga ma'qul bo'lsa** if the proposal is acceptable to you; ~ **jiddiy ishla-sangiz muvaffaqiyatga erishasiz**. If you work in earnest, you will succeed.

agent *n* 1) agent, factor; 2) secret service.

agentlik *n* agency.

agrar *a* agrarian.

agregat *n* aggregate, aggregation, unit.

agressiv *a* aggressive; ~ **siyo-sat** aggressive policy.

agressiya *n* aggression.

agressor *n* aggressor, oppressor.

agressorlik *n* aggression, aggressiveness.

agrobiologik *a* agrobiological.

agrobiologiya *n* agricultural biology, agrobiology.

agronom *n* agriculturist, agronomist; ~ **bo'lib ishlamoq** work as an agronomist.

agronomik *a* agricultural, agronomical.

agronomiya *n* agriculture, agronomy.

agrotexnik I *n* agricultural technician, agrotechnician.

agrotexnik II *a* agrotechnical.

agrotexnika *n* agrotechnics.

ahamiyat *n* significance, importance; ~ **bermoq** attach importance to, pay heed to; ~ **gaga** important, having importance.

ahamiyatli *a* important, considerable, significant; grand; pompous.

ahamiyatlilik *n* importance, significance.

ahamiyatsiz *n* insignificant, unimportant, negligible.

ahamiyatsizlik *n* insignificance, unimportance, negligibility.

ahd *n* agreement, contract; decision, oath, promise, treaty; **tinchlik** ~i peace treaty; ~ **qilishmoq** arrange (*with*); settle (*with*).

ahdlashmoq *v* conclude.

ahdlashuvchi *n* arranger.

ahdnoma *n* written contract, treaty.

ahd-paymon *n* arrangement, understanding, decision.

ahil *a* friendly; amicable; amicably, in harmony, harmoniously; ~ **bo'lib yashamoq** live in peace and friendship.

ahillik *n* close friendship, intimate friendship, friendly relation, mutual consent, agreement, accord, harmony.

ahilchilik *n* friendly terms; ~ **bilan** friendly.

ahl *n* people; **mehnat** ~i toiler, worker.

ahmoq I *n* fool

ahmoq II *a* foolish, stupid.

ahmoqlik *n* foolish, foolishness; ~ **qilmoq** play the fool; make a mistake.

ahmoqona I *adv* foolishly, stupidly.

ahmoqona II *a* foolish, stupid.

ahmoqchilik *n* foolish.

aholi *n* inhabitants, people, population; ~ **yashaydigan joy** settlement, populated; **shahar** ~si town people; **qishloq** ~si country-folk, country people.

ahvol *n* condition; circumstance, status, standing; situation; **ijtimoiy** ~ social status; **oilaviy** ~ family status; **ma'naviy** ~ financial position; **qiyin** ~ga **tushib qolmoq** end up in a difficult situation.

ahyon *adv* sometimes.

ahyon-ahyonda *adv* sometimes.

ajab *a* astonishing, surprising, striking, amazing, wonderful, strange; ~ **bo'bdi!** it serves him right.

ajablanarli *a* striking, astonishing, attracting (*attention*), wonderful, attractive.

ajablanmoq *v* wonder (*at*), amazed (*at*), be (*get*) surprised.

ajablantirmoq *v* astonish, surprise, amaze.

ajabo *adv* strange; amazingly, strangely.

ajal *n* death-hour; death; decease, final hour; **uning ~i yetdi** his final hour arrived.

ajdaho *n* dragon.

ajdod *n* ancestor, forefather.

ajib *a* 1) astonishing, surprising, amazing; 2) wonderful, wondrous, marvellous.

aji-buji (*qiyshiq*) *a* clumsy, sloppy; clumsily, sloppily done; ~ **xat** scribbled letters; ~ **qilib yozmoq** scribble, scrawl; ~ **surat** daub.

ajin *n* wrinkle; ~ **bosgau yuz** wrinkled face.

ajina *n* the evil spirit.

ajoyib *a* astonishing, surprising, striking, amazing; **qanday ~ rasm!** Such a marvellous painting!; ~ **ayol** fine woman.

ajoyib-g'aroyib *a* unusual, uncommon.

ajoyibot *n* miracle.

ajralish *n* 1) separation; 2) parting.

ajralishmoq *v* part (*with*), separate, divorce.

ajralmas *a* inseparable, inalienable, imprescriptible; ~ **do'stlar** inseparable friends; ~ **qism** inseparable part.

ajralmoq *v* separate (*from*); disunite; part.

ajratgich *n* sifter; separator.

ajratish *n* separation, selection, emission.

ajratma *n* deduction.

ajratmoq *v* disjoin, dismember, disunite, separate, select, isolate disconnect, distinguish, divide.

ajrashmoq *v* 1) go away; 2) diverge, branch off; fork.

ajrim *n* 1) determination; definition; 2) attribute; 3) decision.

ajrimlik *n* exclusiveness; discrimination.

akan *n* elder brother (*polite form of address for a man older than the speaker*); **ular tug'ishgan ~ uka** they are brothers; ~ **m Mahmud ingliz tilini mukammal biladi**. My brother Mahmud knows English from A to Z; My brother Mahmud speaks perfect English.

akademik *n* academician.

akademiya *n* Academy; **fanlar ~si** Academy of Sciences; **Qishloq xo'jalik faolari ~ si** Academy of Agricultural Sciences.

akatsiya *n* acacia.

akbar *adj* 1) great; higher; superior; 2) all up; end.

akillamoq (*vovullamoq*) *n* bark, yelp.

akkordeon *n* accordion.

akkumulator *n* accumulator, electrical storage battery (*for vehicles*).

akrobat *n* acrobat.

akrobatik *a* acrobatic.

akrobatika *n* acrobatics.

aks I *n* reflection, reverberation; ~ **etmoq** be reflected; ~ **sado** echo.

aks II (*teskari*) *a* opposite; ~ **holda** other wise.

aksent (*sheva*) *n* accent; ~ **bilan so'zlamog** speak with an accent.

aksiga *adv* 1) the wrong side out; back to front; 2) on the contrary.

aksincha *adv* oppositely, contrarily, wrongly; **U hamma ishni ~ qiladi**. He does everything contrarily.

aksioma *n* axiom.

aksioner *n* shareholder, stockholder; ~**lar jamiyati** joint-stock company.

aksiya (*qimmatli qog'oz*) *n* share, capital.

aksiyador *n* stockholder; ~**lik jamiyati** joint-stock.

aksiyachi *n* stockholder.

aksirish *n* sneezing; sternutation.

aksirmog *v* sneeze.

aksirtirmog *v* sneeze; **aksir-liradigan** gaz sneezing gas.

akslik *a* obstinacy, stubbornness; ~ **qilmog** be obstinate.

akt *n* statement, indictment, act; ~ **tuzmog** draw up a statement (*of the case*).

aktrisa *n* actress; ~ **tomoshaning tayanchi hisoblanadi** the actress is the main factor of the show.

aktual (*dolzarb*) *a* actual; present-day; ~ **masala** urgent issue.

aktuallik *n* actuality.

aktyor *n* actor.

aktyorlik *n* actor's skill, actor's mastership, actor's profession.

akula *n* shark.

akustik *a* acoustic.

akustika *n* acoustics.

akusher *n* accoucheur, obstetrician, ~ **ayol** midwife.

akusherka (*doya*) *n* midwife.

akusherlik *adj* midwifery; obstetrics; ~ **kurslari** obstetrics (*midwifery*) classes.

akvarel I *n* water-colour.

akvarel II *a* water-colours; ~ **bo'yoq** water-colour; ~ **portret** portrait in water-colours.

akvarium *n* aquarium.

alam *n* 1) pain, suffering; ~ **tortmog** feel, have a pain; 2) vexation, annoyance.

alam-achchiq *n* deep mortification.

alamli *a* sorrowful, sad, tormented, suffering.

alam-sitam *n* pain, pang, suffering, stab; ~ **qilmog** hurt.

alamzada *n* 1) suffering person; 2) offended (*with*).

alanga (*olov*) *n* 1) flames, flare; excitement; ~ **olmog** takecatch fire; ~ **olib yonmog** be ablaze; 2) fire.

alanganalanoq *v* take catch fire.

alanganaltirmog *v* set on fire.

alanganalanoq *v* set on fire.

alanganali *a* flaming, fiery; ~ **salom yubormog** send warmest regards.

alanganalanoq *v* look back, examine, observe, look about.

alaxsimog *v* be distracted.

alban I *n* Albanian.

alban II *a* Albanian; ~ **tili** the Albanian language.

albatta *adv* without fail, of course, certainly.

albom *n* album.

aldamoq *v* deceive, cheat, lie; **sharmandalarcha** ~ lie through one's teeth.

aldamchi *n* deceiver, cheat, fraud, trickster, imposter.

aldamchilik *n* fraud, deception, deceit, lies.

aldanmoq *n* be deceived.

aldashmoq *v* deceive, cheat, lie.

aldoqchi *n* deceiver, cheat, fraud, trickster, imposter.

aldoqchilik *n* trickery, imposture, knavery.

alebastr *n* alabaster.

alfa *n* alpha; ~ **zarralar** alpha particles; ~ **nurlar** alpha rays.

algebra *n* algebra.

alifbe *n* alphabet; ~ **kitobi** ABC book.

alifbo = **alifbe**.

aliment *n* alimony; alimony.

alishish *n* exchanging.

alishmoq *v* exchange, an act of exchanging.

alish(tirilmoq) *v* exchange; swap; swop.

alish(tirmoq) = **alishmoq**.

alla *n* lullaby; ~ **aytmoq** sing a lullaby.

allakini *pron. indef.* someone, somebody; ~ **bilan** with somebody; ~ **to'g'risida** about somebody; ~ **ga** to somebody; ~ **dan olibdi** he took from somebody; ~ **ning** somebody's.

allalamoq *v* lull to sleep.

allamahol *n* late hour, late time, late evening; **Yangi yil ~gacha davom etdi** New Year party continued till late evening.

allanarsa *pron. indef.* something; **Dilafroz ~lar demoqchi edi** Dilafroz wanted to tell something.

allauecha (birqancha) *pron. indef.* several, some, a few.

allanina *pron. indef.* something, anything, whatever.

allaqanday *pron. indef.* some, a; unknown, unfamiliar.

allaqayerda *adv* at someplace; (**so'roqda**) anywhere.

allaqayerdan *adv* from somewhere.

allaqayerga *adv* somewhere; (**so'roqda**) anywhere.

allaqaysi *pron. indef.* some, a; ~ **kishi sizni so'rayapti** someone is asking for you; there is a man asking for you.

allavaqt (kech payt) *n* late hour, late time, late evening; ~ **bo'lib qoldi** the time is already late; ~ **gacha** till late evening; ~ **gacha o'tirdik** we sat till late evening; ~ **da** very late; **Botir ~da keldi** Botir came very late.

allaqachon *adv* once (*upon a time*), formerly; long ago; very long time ago, long long ago; ages ago; ~ **dan beri** long since; since olden times.

allaqachongi *adv* old, ancient; long standing, of long standing; ~ **xabar (voqea)** ancient events; ~

do'st an old friend; ~ **do'stlik** a long-standing (*an old*) friendship, a friendship of long standing.

allega *n* learned, erudite, scholar; ~**lar** intellectuals.

almashinmoq *v* exchange, change, barter.

almashish *n* exchanging, bartering, changing.

almashmoq *v* change; exchange; **fikr** ~ change one's opinion.

almashtirmoq *v* change, exchange, barter, alternation, substitution.

almisoq *a* ancient; ~**dan qolgan** antediluvian, very old.

alohida *a* separate, detached; ~ **kvartira** flat; ~ **e'tibor bermoq** pay special attention.

alohidalik *n* peculiarity, feature, oddity.

alomat (*baho*) *n* mark, indication, sign, symbol; **tenglik** ~*i* sign of equality, symbol.

alomatli *a* designated, marked, symbolical.

alomatchoy *n* burdock.

aloqa *n* connection, relation; **diplomatik** ~ diplomatic relations; ~**ni uzmoq** cut the connection; ~ **bog'lamoq** form a connection; ~ **xizmati** communication service; ~ **qilmoq** make contact; ~ **bo'limi** post-office.

aloqador *a* constrained, connected, concerned, interested, embarrassed.

aloqadorlik *n* connection, association.

aloqasiz *a* not constrained.

aloqachi *n* 1) signaller, signalman; 2) liaison; 3) communications worker.

aloy *n* aloe.

alpinist *n* mountaineer.

alpinizm *n* mountaineering.

alqissa *adv* thus, so, in this way, accordingly.

alvasti (*ajina*) *n* demon, devil, chief of the genies.

alvido (*xayr*) *int* good bye!; farewell, adieu!

alvon *a* red, scarlet, vermilion.

aluminium *n* aluminium.

amaki *n* uncle.

amakivachcha *n* cousin.

amal I *n* (*lavozim*, *mansab*) post, position.

amal II *n* action, operation, effect; act, performance, work, job; ~ **qilmoq** act; ~ **qilinmoq** be applied; **qonunga** ~ **qilmoq** keep a rule; ~**da bo'lib turgan qonular** active laws; ~**ga oshirmoq** carry out, implement; ~**da bo'lmoq** be in use, be valid; ~**da tatbiq qilmoq** put to use, utilize; ~**dan tushmoq** get fired, lose a job; **dori** ~ **qildi** the drug was effective.

amaldor *n* official, functionary.

amaliy *a* practical; applied (*as opposed to theoretical*); realistic, effective; ~ **mashg'ulot** practical training; ~ **faoliyat** practical activity; ~ **ish** practical work.

amaliyot *n* 1) activities; 2) occupation.

amaliyotchi (*tadbiqchi*) *n* practical worker.

amaliyotchilik *n* practical work.

amallab (zo'rg'a) *adv* anyhow, hardly, not easily, in a difficult way.

amallamoq *v* contrive, manage; to arrange a matter of business.

anaparast *n* careerist, office-seeker; place-hunter.

anaparastlik *n* selfseeking.

ambulatoriya *n* dispensary; ~ **kasali** out-patient.

Amerika *n* America; **Shimoliy** ~ North America.

amerikalik *n* American; ~ **ayol** American (*woman*).

amfibiya *n* *zool.* amphibian.

amfiteatr *n* amphitheatre.

amin (*ishonch*) *a* assured, sure, confident, positive, certain; ~ **bo'lmoq** to be sure.

aminlik *n* confidence.

amir (*boshliq*) *n* 1) amir, commander, emir; 2) sovereign; ~ **i lashkar** military leader.

amirkon *a* varnish, lacquer; ~ **teri** patent leather.

amirlik *n* emirate, command, **Buxoro amirligi** the emirate of Bukhara.

amma *n* aunt (*father's sister*).

ammavachcha *n* cousin.

ammiak *n* ammonia, ammonium hydrate.

ammiakli *a* ammonium; ~ **selitra** ammonium nitrate.

ammo *conj* while; and; but, however.

amniya (*kechirish*) *n* amnesty; free pardon; ~ **qilmoq** grant amnesty.

amortizator *n* shock-absorber.

amortizatsiya *n* amortization; ~ **qilmoq** amortize.

amper *n* ampere; ~ **soat** ampere hour.

ampermetr *n* amperemeter, ammeter.

amper-soat *n* ampere hour.

amplituda *n* amplitude.

ampula *n* ampule.

amr *n* (*buyruq, farmon*) order, command, edict, precepts; (*hist*) principality, jurisdiction; **imon** ~ **i** precepts of the faith; **imon** ~ **iga bo'ysunuvchilik!** obedience to the precepts of the faith!

amrimahol (*qiyin*) *a* unfeasible, unlikely, impossible; unfeasibility, unlikelihood, impossibility, difficult.

ana I *adv* there; here;

ana II *pron.* this, that; ~ **shu** this, this one, this very; ~ **vi** that there.

analitik *a* analytic(*al*); ~ **usul** analytical method.

analiz (*tekshiruv*) *n* analysis; ~ **qilmoq** analyse.

analogik *a* analogous.

analogiya *n* analogy

anarxist *n* anarchist.

anarxiya *n* anarchy.

anatomik *a* anatomical; ~ **teatr** anatomical theatre.

anatomya *n* anatomy; **odam** ~ **si** human anatomy; **hayvon** ~ **si** animal anatomy; **o'simlik** ~ **si** plant anatomy.

anavi *pron. demonstr.* that.

andava *darby.*

andaza (*o'lov*) *n* measure; ~ **olmoq** take smb's measure.

andisha (*nomus, or*) *n* sence, wisdom, shame, wise.

andishali (*or-nomusli*) *a* reasonable, sensible, wise, tactful, mind, intellect.

andishasiz (*uyatsiz*) *a* rash, reckless, ill-advised, shameless, strive, aspiration.

andishasizlik *n* impudence, insolence, recklessness.

andom (*tana, badan*) *n* build, frame; figure.

andoza *n* measure.

anduh *n* grief, sorrow, distress, grieve, sad, mournful.

angina *n* quinsy, tonsillitis.

angishvona *n* thimble.

anglah *adv* understanding that..., understandably, insightly.

anglamoq (*tushunmoq*) *v* understand; comprehend; realize.

anglatmoq *v* mean, make somebody understand; explain; **Bu nimani anglatadi?** What does it mean?

anglashilmoq *v* understand, comprehend.

anglashilmovchilik *n* misunderstanding.

anglashmoq *v* understand.

angor *a* angora; ~ **echki** angora goat; ~ **mushuk** angora cat.

angraymoq (*hayron qolmoq*) *v* look on in wonder or amazement, astonished, be surprised.

anhor *n* large irrigation canal, stream, river; ~ **bo'yida dam olmoq** have a rest on the bank of a large canal.

anilin I *n* aniline.

anilin II *a* aniline; ~ **bo'yoqlar** aniline dye.

aniq *a* 1) exact, precise, accurate; ~ **vaqt** exact time; ~ **fanlar** exact sciences; 2) correct, right; ~ **nima bo'lganini bilmayman** I don't know exactly what happened.

aniqlamoq *v* specify, make more exact, accurate, define; precise, determine; clarify; explain; confirm, verify.

aniqlik *n* 1) exactness, precision; 2) accuracy; 3) exactitude; preciseness.

aniqlovchi *n* 1) *gram.* attribute; 2) determination; 3) decision.

anjir *n* 1) fig (*meva*); 2) (*daraxti*) fig-tree.

anjom *n* furniture; furnishings; items, imple-ments; **uy ~i** household, instrument furnishings, tool.

anjuman (*majlis*) *n* 1) meeting; 2) assembly; 3) collection; 4) forum; **yozuvcilar ~i** writer's forum.

anketa *n* form, questionnaire; ~ **to'ldirmoq** fill in a form; ~ **ma'lumotlari** biographical particulars, data.

anneksiya *n* annexation; ~ **qilmoq** annex.

annotatsiya *n* annotation; ~ **yozmoq** annotate.

anod I *n* anode.

anod II *a* anode; ~ **batareyasi** anode battery.

anonim *a* anonymous; ~ **xat** anonymous letter.

anor *n* 1) pomegranate; ~ **suvi** pomegranate juice; 2) pomegranate tree.

anorganik *a* inorganic; ~
kimyo inorganic chemistry.

anorzor *n* pomegranate garden.

anoyi (*ishonuvchi*) *a* credulous, gullible.

anqaymoq *v* be at a loss, to look with amazement, be dumbfounded; **hayron bo'lib anqayib qolmoq** gape in amazement.

anqov (*garang*) *n* gawk, gullible person, simpleton, fool.

anqovlik *n* thoughtlessness, gullibility; ~ **qilmoq** gape (*about*).

ansambl *n* ensemble, company, group; **ashula va raqs ~i** Song and Dance Company; **arxitektura ~i** group of buildings (*e.g. Registon*).

antarktika I *n* the antarctic.

antarktika II *a* antarctic.

antenna *n* aerial, antenna.

antibiotik I *n* antibiotic.

antibiotik II *a* antibiotic; ~ **dori** drug, tablet, medicine.

antik (*qadimiy*) *a* antique; ancient; ~ **dunyo** antiquity (*the old World*), antique, out of a day.

antiqa *a* 1) thin, sparse; ~ **tish** widely spaced teeth; 2) odd, strange, queer.

antiqiy (*antiqa*) *a* funny, rum, out of the way.

antisaniatar *a* insanitary; ~ **iya holati** unsanitary conditions, unhygienic.

antologiya *n* anthology.

antonim *n* antonym.

antropolog *n* anthropologist.

antropologik *a* anthropological.

antropologiya *n* anthropology.

antropometrik *a* anthropometric.

antropometriya *n* anthropometry.

ang'iz *n* stubble.

ancha *adv* 1) much, plenty of, a lot of; 2) very; ~ **yaxshi** very good; 3) enough, rather, a great number of; **u ~gina yaxshi kuylaydi** she sings fairly well.

ancha-muncha *adj* very much, quite lot, rather much.

an'ana (*odat*) *n* tradition; ~ **ga muvofiq** by tradition, according to tradition.

an'anaviy *a* traditional.

an'anaviylik *n* traditional nature, character.

apelan *n* orange; ~ **daraxti** orange-tree.

apil-tapil *adv* hastily, hurriedly; **biror ishni ~ bajarmoq** do things hastily.

apoq-chapoq (*do'stona*) *adv* friendly; ~ **bo'lmoq** be on friendly terms with.

apostrof *n* apostrophe.

apparat *n* apparatus; **davlat ~i** State machinery; machinery of the State; **telefon ~i** telephone apparatus; **foto ~** photo apparatus, camera.

apparatura *n* apparatus.

appenditsit (*ko'richak*) *n* appendicitis.

aprel *n* April; ~ **oyida** in April; **o'tgan yili ~ oyida** last April; **kelasi yili ~ oyida** next April.

aqcha *n* money; **qog'oz** ~ paper-money.

aqida *n* persuasion, belief, conviction; dogma; **diniy ~lar** religious dogmas.

aqidaparastlik *n* dogmatism.

aqiq *n* entertainment in case of birth of child in the family.

aql *n* mind; brains; wit, intellect; **porloq** ~ lucid mind; **~dan ozmoq** go mad, go insane; **sog'lom** ~ sensible mind, common sense; **o'tkir** ~ inquisitive mind; ~ **bilan** reasonably, wisely, sensibly, cleverly; ~ **tuzilishi** cast of mind; **~i kalta odam** none too clever; **~i kaltalik** narrow-minded; **~i solim** sober minded; sane-minded; **~i solim inson** sensible person; man of common sense; ~ **yugurtirmoq** think, consider; **~i shoshdi** he lost his head; **~ni shoshiradigan** prodigious; **~ga sig'adigan** wise, reasonable, judicious; **~ga sig'maydigan** unreasonable; **~ni rivojlantirmoq** cultivate the mind; **~ni namoyon qilmoq** display one's intelligence.

aqlan *adv* mentally.

aql-hush *n* reason.

aql-idrokli *a* perceptive, perceptible, comprehensible, understandable; **aql-idrok bilan ish tutmoq** work perceptively.

aqliy *a* mental, intellectual; ~ **mehnat** mental work; brainwork; ~ **faoliyat** mental activities.

aqli *a* clever, intelligent; sensible; ~ **odam** clever man, man of sense.

aqlilik *n* quick wits, quickness of wit.

aqlsiz *a* foolish, stupid, silly.

aqlsizlik *n* foolishness, folly, stupidity.

aql-tushuncha *n* reason.

aql-zehn *n* mind, intelligence.

aqrabo *n* relative, relation.

ar (*100m2*) *n* arc (*100 sq. m.*).

arab *n* Arab, Arabian; Arabic; ~ **tili** the Arabic language; ~ **dunyosi** the Arab World.

Arabiston *n* Saudi Arabia.

arabiy *adj* Arabian, Arabic; ~ **adabiyot** Arabic literature.

arabshunos *n* Arabist, specialist in arabic philology, arabic philologist.

arabcha *a* Arabian, Arabic; ~ **raqamlar** Arabic numerals.

arafa *n* eve; the night before; the last day of Ramadan; **Yangi Yil ~si** New Year's eve; **~sida** on the eve.

aralash *a* intermingled, fused, mixed; ~ **yem-xashak** mixed feed; ~ **son** mixed number; ~ **qilib yubormoq** mix, mix up; **qon** ~ **tupurmoq** spit blood.

aralashish *n* interference, intervention.

aralashma *a* mixture; medley; **yonuvchi** ~ gas mixture.

aralashmoq *v* mix; **olomon bilan aralashib ketmoq** mix up in the crowd.

aralash-quralash *a* mixed.

aralashtirmoq *v* mix together, mix up; involve.

arang *adv* hardly, with difficulty, only just; **Ravshan o'zini yig'idan** ~ **to'xtatdi** Ravshan restrained his tears with difficulty.

araq *n* vodka; ~ **ichmoq** drink vodka.

araq *n* eaves.

araqxoʻr *n* drunkard, taper, tippler.

araqxoʻrlik *n* hard drinking, drunkenness; heavy drinking of alcohol or araq.

arava *n* cart, waggon; **bir** ~ **oʻtin** cart loaded with wood; **qoʻl** ~ handcart; **otash** ~ train; **shayton** ~ bicycle; ~ **ngni tort!** be off!

aravakash *n* carter, coachman, driver.

aravakashlik *n* carrier's trade; ~ **qilmoq** be a carrier (*by*) trade.

aravaso *n* master who makes cart; a specialist who makes cart.

aravaso *lik* *n* cart making profession (*job*).

aravacha *n* small cart.

araz *n* quarrel, offence, injury, insult, wrong; ~ **qilmoq** take offence.

arazlamoq *n* be at odds with smb., be on bad terms with smb.

arazlashmoq *v* quarrel.

arazchi *a* touchy, susceptible, quick to take offence.

arbob *n* specialist; (*public*) figure; **fan** ~ **i** man of science, scientist; **jamoa** ~ public man; **davlat** ~ **i** statesman; **siyosiy** ~ political figure.

ardoqlamoq *a* cherish, foster; be fond of meaning.

ardoqli *a* honourable, cherished, respectable; ~ **mehmon** respectable guest.

argentinalik *n* Argentinean; ~ **avol** Argentinean.

ari *n* wasp; bee (*asalari*); ~ **uyasi** a nest of hornest; **tukli** ~ bumble-bee; **qizil** (*yoki qovoq*) ~ hornest; ~ **uyasini buzmoq** stir up a nest of hornest; bring a hornest's nest.

arifmetik *a* arithmetical; ~ **masala** arithmetical sum.

arifmetika *n* arithmetic; ~ **masalasi** arithmetical sum (*problem*).

arillamoq *v* yell, shout in a very loud voice.

arimoq *v* run low.

ariq *n* irrigation ditch, irrigation canal, brook, stream.

ariqcha *n* brooklet.

arixona *n* 1) place; 2) (*bee*) hive.

ariza *n* request, application, petition; ~ **bermoq** submit an application.

arizachi *n* petitioner.

arjumand *a* dear; **farzandi** ~ dear son.

ark *n* stronghold, castle, citadel, fortress.

arktika *n* the Arctica; the Arctic regions.

arman *n* Armenian; ~ **ayol** Armenian; ~ **tili** the Armenian language.

Armaniston *n* Armenia.

armatura *n* steel frame work; fittings.

armiya *n* army; **harakatdagi** ~ army in the field; ~ **dan boʻshatish** discharge from the army; **ishsizlar** ~ **si** army of the unemployed; **dushman** ~ **si** army of the enemy.

armon *n* dissatisfaction, discontentment; unfulfilled wish; unattained goal.

armonsiz = bearmon.

armug'on *n* gift, present.

aro *prep* among, amongst.

aroq *n* vodka.

arosat *n* bustle, turmoil.

arpa *n* barley.

arqon *n* lasso, rope; ~ **bilan bog'lamoq** rope; ~**ni tortmoq** draw a rope; **kir yoyiladigan** ~ clothes line.

arqonlamoq *v* tie (*to*), bind (*to*), fasten (*to*); **otni** ~ tether a horse.

arqoq *n* weft, woof.

arra *n* saw; **qo'l** ~ handsaw; **mashina** ~ frame-saw.

arrakash *n* sawyer, wood-cutter, hand-sawyer.

arralamoq *v* saw; nag, pester, saw up, saw into pieces.

arralash *n* sawing.

arslon *n* lion; **urg'ochi** ~ lioness.

arteriya *a* artery.

artezian: ~ **qudug'i** artesian well.

artilleriya *n* artillery.

artilleriyachi *n* artilleryman, gunner.

artilmoq *v* 1) wipe, dry oneself; 2) become threadbare, dry oneself.

artist *n* artist, actor; performer; **xizmat ko'rsatgan** ~ meritorious (*deserved*) artist; **kino** ~**i** film star; **balet** ~ ballet dancer; **xalq** ~**i** People's artist.

artmoq *v* wipe, dry, rub, scrape, peel; **kartoshka** ~ to peel, to

scrape potatoes; **changni** ~ to wipe away dust.

aruz *n* aruz, a poetry metre (*alternate long and short syllables*).

arvoh *n* ghost, spectre.

arxaik *a* archaic, antiquated.

arxaizm *n* archaism.

arxeolog *n* archaeologist.

arxeologik *a* archaeological.

arxeologiya *n* archacology.

arxitektor *n* architect.

arxitektura *n* architecture.

arxiv *n* archives; **davlat** ~**i** State Archives.

arz (*shikoyat*) *n* statement, declaration, complaint, oral declaration; ~ **qilmoq** make a complaint.

arzanda (*erkatoy*) *a* 1) darling; 2) dear, dearest, loved, beloved, dearly.

arz-hol *n* statement, declaration.

arzimas *a* unworthy, improper, unbecoming.

arzimoq *v* be worthy, be proper, be fitting.

arziydigan *a* deserving, worthy, worth.

arznoma *n* application, statement.

arzon *a* cheap; low; inexpensive; ~ **narxga sotib olmoq** buy at a bargain.

arzon-garov *adv* cheap, cheaply.

arzonlashmoq *v* fall in price, cheapen.

arzonchilik *n* cheapness (*of*); low prices (*for*), inexpensiveness.

arg'amchi *n* tow-rope, tow-line.

arg'imchoq *v* playswing, rope, swing.

arg'umoq *n* skipper, jumper; ~ot fast horse.

arg'uvon *n* crimson, lime-tree, linden.

arshin *n* arshin (28 inches).

archa *n* fir tree; ~bayrami New Year's tree, Christmas tree.

archimoq *v* peel, skin, flay.

archmoq = **archimoq**.

asab *n* nerve; ~ga tegmoq get on smb's nerves; ~lar sistemasi the nervous system.

asabbuzar *n* man (or woman) who gets on smb's nerves.

asabiy *a* nervous; neural; ~tutqanoq attack of nerves; ~kasalliklar nervous disease.

asabiyat *n* 1) nervousness; 2) nerve.

asabiylanmoq *v* be nervous, feel nervous.

asabiylantirmoq *v* get on smb's nerves.

asabiylashmoq *v* be nervous (more and more).

asabiylik *n* nervousness.

asal *n* honey; ~oyi honey moon; ~dek shirin honey-sweet.

asalari *n* bee; **ona** ~ green bee; ~qutisi bee hive; ~kabi band busy as bee.

asalarichi *n* bee-master, apiarist.

asalarichilik *n* bee-keeping, apiculture.

asar I = **iz**.

asar II *n* work track, print, creative work, composition; **musiq**a ~i musical composition' **abstrakt san'at** ~i abstract art work; **tanlangan** ~lar select works; **she'riy** ~lar poetic works.

asbob I *n* instrument; **jarrohlik** ~lari surgical instruments; **musiq**a ~lari musical instruments.

asbob II tool; **hunarmandchilik** ~lari tools; **qishloq xo'jalik** ~lari implement.

asbob III things; **ro'zg'or** ~lari household things.

asbob-anjom *n* equipment, outfit.

asbobsoz *n* toolmaker, instrument-maker.

asbobsozlik *n* toolmaking, instrumentmaking (*industry*).

asbob-uskuna *n* equipment, outfit, machinery.

asfalt *n* asphalt; ~qilmoq lay asphalt.

asfaltlashtirish *n* paving, laying asphalt, blacktopping.

asil I *a* real, original, essential, genuine, true; regular.

asil II *n* precious; ~tosh precious stone.

asilzoda *n* nobleman, aristocrat.

asilzot *a* thoroughbred, pedigree (*hayvon to'g'risida*); purebred (*it to'g'risida*).

asimmetrik *a* asymmetric(*al*).

asir (*mahbus*) *n* captive, prisoner; **kimnidir** ~qilmoq take smb. prisoner.

asira (*ayol mahbus*) *n* prisoner, captive.

asirlik *n* captivity.

askar *n* soldier, fighting, militaryman, battle.

askarboshi *n* military leader, commander, head, chief.

askarlik *n* military service; ~ **kiyimi** military uniform.

askarcha *a* military.

askiya *n* witticism, witty remark, mental sharpness, keenness, cleverness; a type of word game.

askiyaboz *n* person with sharp or quick wits; quick-witted.

asl I *n* essence, point, main; ~**ini olganda** (*aytganda*) practically speaking.

asl II *n* original, origin, foundation, base, essential point, root; ~**i bilan solishtirmoq** compare with the original; ~ **nusxa** original.

aslaha (*uskuna*) *n* armaments, weaponry, weapons, arms.

aslaha-anjom *n* armament.

aslahali (*qurolli*) *a* armed.

aslahaxona *n* arsenal; armoury.

aslan = **aslida**.

aslida *adv* virtually; at the bottom.

aslo *adv* 1) quite, entirely, totally; 2) never, not at all (*with negated verb*).

asno (*vaqt*) *n* 1) period (*space*) stretch of time; 2) moment, instant.

aso *n* staff, crook.

asorat *n* influence; ~ **ida bo'lmoq** be under the influence (*of*); after effects consequence.

asos *n* 1) base; bases; foundation; **bozor va boshqaruv ~lari** the principles, foundations of market and management; **shu ~da yoki shuning ~ida** on these grounds; ~ **soluvchi** founder; **tashkilotga ~ solindi** the organization was founded; 2) principles; fundamentals; ~ **qidirib topmoq** get to the bottom.

asosan *adv* chiefly, mainly, principally, in general.

asosiy *a* main, chief; principal; basic, fundamental; ~ **qonun** basic law.

asoslamoq *v* base, found.

asosli *a* well-grounded.

asossiz *a* groundless, unfounded.

asoschi *n* founder, initiator.

asov *n* restive, jibbing; wild; ~ **ot** unbroken horse; ~ **daryo** ungovernable river.

asovlashmoq *v* run wild (*about plant*); become (*grow*) wild (*about animals*).

aspirant *n* postgraduate (*student*).

aspirantura *n* postgraduate studentship, post graduate course, research studentship.

aspirin *n* aspirin.

asr *n* century, age; ~**dayoq** as early as in the century.

asramoq *v* 1) bring up; 2) keep; 3) adopt (**boqib olmoq**, **bola qilish olmoq**).

asrandi *n* adopted child, foster child.

asrdosh *n* contemporary, modern.

assambleya *n* assembly; **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh ~si** the General Assembly of the United Nations Organization.

assimetriya *n* asymmetry.

asta *adv* slowly, quietly, calmly.

astar *n* lining.

asta-sekin *adv* very slowly, gradually, cautiously, quietly.

astma *n tib.* asthma; **yurak ~si** cardiac asthma; **bronxlar ~si** bronchial asthma.

astoydil *adv* sincerely, frankly, candidly, with zeal, eagerly, with enthusiasm, with ardour.

astronom *n* astronomer.

astronomiya *n* astronomy.

atalmoq (nomlanmoq) *v* 1) bear the name (*of*); be named; 2) be decided.

atama (termin) *n* term, designation.

atamoq *v* 1) name; give name; 2) dedicate.

atayin *adv* intentionally, on purpose.

ateizm *n* atheism.

atelye *n* studio, workshop; **foto ~** photo studio; **kiyim ~si** dress-making and tailoring establishment; **modalar ~si** fashion house.

atigi *adv* only, just, merely.

atir *n* fragrance, perfume, scent; **hidli ~** fragrant, sweet scented.

atirgul *n* rose; **tikansiz ~ bo'lmas (maq.)** no rose without a thorn (*prov.*).

atlas I *n* atlas.

atlas II *n* satin (**gazmol**), satin-cloth, varicolored cloth.

atletika *n* athletics; **yengil ~** track-and-field athletics.

atmosfera *n* atmosphere.

atom *n* atom; ~ **og'irligi** atomic weight; ~ **bombas(si)** atom bomb; ~ **urushi** atom war; ~ **energiyasi** atomic energy; ~ **quroli** atomic weapon; ~ **elektr stantsiyasi** atomic electric power-station.

atrof *n* 1) surroundings; circumference; suburb, circle; ~ **dagi muhit** surrounding condition; 2) round about; ~ **ida** about; ~ **ga nazar solmoq** look about; ~ **dagi sharoitga moslash (tir)moq** acclimatize oneself to the surroundings; ~ **muhitni muhofaza qilish** protecting the environment.

atrofida I *prep* about; **Farhod kecha uyga soat uchlar ~ keldi.** Farhod come home about three o'clock yesterday.

atrofida II *adv* around, round; **atrofga qaramoq** look around.

atroficha *adv* thoroughly, in detail, from all sides.

atsetilen *n* acetylene.

atseton *n* acetone.

atang *a* pity, annoyance; what a pity! **E, ~!** What a pity! It is a pity; ~ **Komil kelmayaptida!** It is a pity that Komil has not come!

attestat *n* certificate (*of graduation from middle school*); proof of holding a scientific, military or special rank; **yetuklik ~i** school-leaving certificate.

attestatsiya *n* certification of rank, recommendation (*for expertise in a certain field*).

attor *n* men's clothier, haberdasher (*seller or luxury clothing and grooming accessories*).

attorlik *n* haberdashery; ~ **do'koni** haberdasher's (*shop*).

auditoriya *n* 1) lecturehall, lecture-room; 2) audience (*tinglovchi*).

avangard I *n* advance guard; innovation; vanguard.

avangard II *a* vanguard, van.

avangardlik *n* advance guard; vanguard; innovation.

avans *n* advance-payment; ~ **olmoq** get money in advance (*yoki beforehand*).

avaylab *adv* with care, carefully, cautiously.

avaylamoq *v* take care (*of*); spare; **o'z sog'ligini** ~ take care of one's health; **o'z kuchini** ~ spare one's strength; **O'zingizni avaylang!** Have a care!, Take care!

avariya wreck, crash, accident; ~**ga uchramoq** to have an accident, get into a crash/wreck; **Do'stingizning mashinasi qayerda avariya uchradi?** Where did your friend's car wreck?

avgust *n* August; ~ **oyida O'zbekistonda** **havo juda issiq bo'ladi.** It is very hot in Uzbekiston in August.

aviabaza *n* air base.

aviabomba *n* aircraft bomb.

aviakompaniya *n* airline company.

aviakonstruktor *n* aircraft designer.

aviamodel *n* aircraft model.

aviamotor *n* aircraft engine.

aviapochta *n* air mail; **men xatni ~ orqali jo'natdim** I sent a letter by air mail.

aviatsion *attr* aircraft, aviation.

aviatsiya *n* aviation; ~ **sanoati** aircraft industry.

aviazavod aircraft factory.

avj *n* (*the*) culmination; the highest point; summit; **O'tgan hafta paxta dalasida ish ~iga chiqdi.** Last week the work reached the highest point in the cotton field; ~**iga chiqqan** in full swing; **o'zaro musobaqani keng ~ oldirmoq** speed out mutual competition.

avliyo *n* holy; saint; sacred.

avlod *n* descendant, generation, scion; **yosh ~** young generation.

avlod-ajdod *n* generation.

avra *n* cover; outside; top, right side.

avramoq *v* persuade, win over.

avstraliyalik *n* Australian (*person*).

avstriyalik *n* Austrian (*person*).

avtobaza *n* motor depot.

avtobiografik *a* autobiographic(*al*).

avtobiografiya *n* autobiography.

avtobus *n* bus, omnibus, motor bus; autobus.

avtograf *n* autograph.

avtokolonna *n* motor transport column.

avtokorxon *n* autorepair shop.

avtol *n* autol, motor oil.

avtomashina *n* motor vehicle, automobile.

avtomat I *n* machinegun.

avtomat II *a* automatic; ~ **telefon** automatic telephone (*apparat*); public callbox (*budka*).

avtomatlashitirilmov *v* automatize.

avtomatchi *n* submachine gunner.

avtomobil *n* car; autocar, automobile; ~ **zavodi** motor automobile works.

avtomobilsozlik *n* motor-car construction.

avtonom *a* autonomous; ~ **respublika** autonomous republic; ~ **viloyat** autonomous region.

avtonomiya *n* autonomy.

avtopark *n* motor pool, vehicle fleet.

avtoportret *n* selfportrait.

avtopoyga *n* motorraces, autorace.

avtoreferat *n* synopsis of thesis (*prepared by candidate*).

avtoruchka *n* fountainpen, inkpen.

avtotransport *n* motor transport.

avtozavod *n* motor automobile works, automobile plant.

avval *adv* 1) earlier; 2) before; 3) formerly, previously; **eng** ~ first of all; **nonushtadan** ~ before breakfast; ~ **dan oxirgacha** from A to Z; ~ **o'yla, keyin so'yla** (*maq.*) think first, then speak (*prov.*).

avvaldan *adv* previously, beforehand; ~ **oxirgacha** from A to Z.

avvalgi *a* previous, former; primary; **urushdan** ~ pre-war; ~ **kun** the day before (*yesterday*).

avvalgidek *adv* as before, as usual.

avvallari *adv* earlier.

avvalo *adv* (*at*) first, firstly, before.

avzo mood, condition, humour; frame (*attitude*) of mind; **uning ~yi yaxshi** he is in a good mood.

ax *int.* ah!, oh!

axborot *n* report, information, communication, news; **so'nggi** ~ latest news.

axir *adv* 1) finally, at last; 2) after all.

axlat *n* garbage, rubbish, trash, dust; ~ **uyumi** dust-heap; ~ **qutisi** dustbin.

axlatxona *n* garbage dump, refuse heap.

axloq *n* morals, ethics.

axloqbuzar *a* seducer.

axloqiy *a* moral, ethical; ~ **ma'naviy** moral and ethical; ~ **buzuqlik** immorality.

axloqli (*ma'naviy*) *a* moralizing, moral, well-bred.

axloqsiz *a* immoral; dissolute, corrupted, depraved, reprobate.

axloqsizlik *n* dissoluteness, libertinism, immorality, depravity, debauchery.

axta *a* castrated, emasculated; ~ **qilmoq** castrate; ~ **qilish** castration.

axtalamoq *v* castrate.

axtarmoq *v* look (*for*); search.

axtaxona *n* stable.

aya (*ona*) *n* mother; mamma, nanmy.

ayamoq *v* feel sorry (*for*), pity, spare, guard, show concern, have mercy; **ayamasdan tanqid qilmoq** criticize merciless.

ayanchli *a* sorrowful, mournful.

ayb (*kamchilik*) *a* fault, guilt, blame; **~ini tan olmoq** admission of guilt; **~ini o'z bo'yniga olmoq** take blame onto oneself, bear the blame; **~iga iqrar bo'lmoq** admit guilt.

aybdor *n* 1) guilty (*of*), culprit; causer; 2) *yur.* accuser.

aybdorlik *n* guilt, culpability.

ayblamoq *v* blame, accuse, cause.

ayblanmoq *v* be charged (*with*), be accused (*of*); be prosecuted (*for*).

ayblanuvchi *n* the accused; defendant.

ayblash *n* 1) charge, accusation; 2) the prosecution; **jinoyatda** ~ imputation of a crime; ~ **hujjat-lari** accusatory documents.

aybli *a* guilty.

ayblov *a* accusatory; ~ **fikri** (*bill of*) indictment.

ayblovchi *n* accuser; prosecutor; **davlat ~si** state prosecutor; **jamoat ~si** public prosecutor.

aybnoma *n* accusatory document, criminal indictment, verdict of guilt, complain book.

aybsiz *a* innocent, guiltless; **~deb topmoq** bring in a verdict of not guilty; ~ **aybdor** guilty though guiltless.

aybsizlik *n* innocence, guiltlessness.

ayiq *n* bear; **urg'ochi** ~ she-bear; ~ **bolasi** bear-cub, **oq** ~ polar bear.

ayirbosh *n* exchange, barter; ~ **qilmoq** to exchange.

ayirboshlamoq *v* barter (*for*), exchange, trade.

ayirboshlanmoq *v* exchange, exchanging, trading, bartering, trade.

ayirgich *n* separator.

ayirish *n math.* divisor.

ayirma *n* distinction, difference, distinction.

ayirmoq *v* 1) separate, detach; 2) isolate; 3) take away; 4) differ (*from*); 5) divide, isolate, remove; differentiate; subtract.

ayiruv: ~ **bog'lovchisi** *gram.* disjunctive conjunction.

aylana *n* circle, circumference, circular; ~ **yo'l** roundabout way.

aylanasida (*bo'ylab*) *adv and prep* round, around; **dunyo ~ sayohat qilmoq** travel around the world.

aylanay *my* dear one.

aylanish *n* rotation; revolution; gyration; **Yerning Quyosh atrofida** ~i the earth's rotation round the sun; **qon ~i** circulation of the blood.

aylanma *a* 1) whirlpool; eddy; vortex, whirl, maelstrom; 2) circle, ring; 3) circular, rotatory; ~ **harakat** rotatory movement; ~ **temir yo'l** circuit railway.

aylanmachoq *a* round-about; ~ **yo'l** roundabout way.

aylanmoq *v* turn (*round*), revolve (*round*); **Oy Yer atrofida**

aylanadi the moon revolves round the earth; **aylanib yurmoq** go for a walk.

aylantirmoq *v* 1) alter, change, transform; reorganize; encircle, go around; cause to turn; 2) turn (*round and round*); **suvni bug'ga** ~ evaporate water (*to turn water*) into the steam; **gapni** ~ embroil a talk.

ayn *a* given, present; **~i vaqtda** at the given (*present*) time; right away; straight away.

ayuama (*o'zgaruvchan*) *a* changeable; **~ob-havo** changeable weather; **~odam** inconstant man.

aynamachi *a* 1) inconstant; 2) changeable.

aynamachilik *n* inconstancy.

aynan (*xuddi*) *a* word-for-word, literal, exactly, precisely; **~shunday** just (*exactly, precisely*) the same.

ayni *a* exactly; **~paytda** at this moment, at the same time.

aynimoq *v* 1) spoil; 2) change; 3) become worst; 4) go bad (*taom haqida*); 5) decay (*tish haqida*); rot; **Uning fe'li aynib turibdi** He is losing his good spirits.

ayniqsa *adv* especially; particular; **U ~ kechalari band bo'ladi** He is especially busy in the evening.

aynitmoq *v* dissuade (*smb. from*).

ayol *n* 1) woman; lady; female; **o'zbek** ~i Uzbek woman; **~shifokor** woman doctor; lady doctor; 2) wife; **~lar ko'ylagini kiyib**

olmoq disguise oneself in a woman's dress; **ajoyib** ~ fine woman; **~cho'pon** shepherdess; wife of a shepherd.

ayon I (*aniq*) *a* evident, obvious.

ayon II (*aniq*) *adv* obviously, apparently; **~bo'lmoq** become evident; **~aylamoq** to reveal; make obvious.

ayov *n* mercy; compassion; **~bermay** mercilessly, unsparingly.

ayovli *a* considerable; **~mehmon** quest of honour.

ayovsiz *a* merciless ruthless, unmerciful, pitiless.

ayoz (*sovuq*) *n* frost, cold, cool.

ayqirmoq *v* make a noise; **bolalar ~da** the children are making a lot of noise; **dengiz ~da** one can hear the noise of the sea.

ayri *n* fork, bifurcation; **~shox** forked branch.

ayrilq *n* separation, parting.

ayrilish *n* parting, cross-roads; separation.

ayrilishmoq *v* part (*with*).

ayrilmas *a* inseparable, inalienable, imprescriptible.

ayrilmoq *v* separate, detach, disjoin, be separate, be disjoin, detached.

ayriluvchi *math. n* subtrahend.

ayrim *a* 1) (*alohida*) separate; **~xona** separate room; 2) (*ba'zi, maxsus*) special, different; **~kishilar** individuals; **~bollarda** sometimes.

ayron *n* ayron, a drink of thin yoghurt.

aytarli (*deyarli*) *a* such.

aytganday *adv* by the way.
aytgandek *adv* to the point; opportunely; by the way
aytganacha to the point; opportunely.
aytilish *n* pronunciation.
aytilmoq *n* say, tell (*about*).
aytish *n* saying; telling; speaking.
aytishmoq *v* argue (*with*), abuse.
aytmoq *v* 1) say (*to*), tell (*about*);
rostini ayt! Tell the truth; **yolg'on**
 ~ tell a lie; **o'z fikrini** ~ give one's
 opinion (*of*); **hech narsa aytil-**
masin make no comment (*on*);
 2) speak (*with, to-about of*); talk
 (*to, with-about of*).
aytmoqchi *adv* by the way; ~
qachon keldingiz? By the way
 when did you come?
ayvon *n* verandah, terrace;
 shed, penthouse, porch terrace.
ayyom *n* 1) days; **bahor ~ida**
 in spring days; 2) holiday, red-
 letter day; ~**ingiz muhorak**
 I congratulate you on your holiday
 (*Happy holiday to you*); **Navro'z**
 ~**i keldi** The New Year arrived.
ayyor *n* a sly, cunning one; sly
 boots.
ayyorlik *n* cunning, slyness,
 pretense; ~ **qilmoq** be cunning.
ayyorona *adv* 1) slyly, cunningly,
 crafty; 2) cute, pretty.
ayg'ir *n* stallion, male colt.
aygo'q I *a* vigilant, watchful.
aygo'q II *n* spy, secret service
 man.
aygo'qchi *n* spy, secret service
 man.

ayg'oqchilik *n* espionage; ~
qilmoq spy.

aysh *n* pleasure, amusement,
 delight, enjoyment; ~ **qilmoq** en-
 joy; ~**ini surmoq** take pleasure in.

aysh-ishrat *n* carouse, drink-
 ing-bout, orgy; **tungi** ~ night-
 revel; ~ **tashkil qilmoq** go on the
 spree, have a drinking-bout, have
 an orgy.

aza *n* mourning, lamentation, a
 lament; ~ **tutmoq** lament, mourn.

azal (*qadim*) *n* eternity; ~**dan**
 long since; ~**dan qolgan** primordial;
 ageold; ~ **-azaldan** (*qadimdan*)
 since very ancient times.

azalgi *a* ancient; antique.

azaliy *a* old, ancient; ~ **do'stlar**
 old friends.

azamat *a* 1) gallant; dashing;
 2) daring bold; 3) brave, valorous,
 courageous; ~ **yigit** brave young
 man.

azim *a* big; large, enormous,
 huge; vast.

aziyat (*zahmat*) *n* damage;
 loss; suffering, torment, detri-
 ment; ~ **yemoq**, ~ **tortmoq** suffer.
 (*from*); ~ **chekuvchi** martyr; ~
yetkazmoq torment; harass.

aziz *a* 1) expensive; costly;
 beloved, favourite, precious,
 valuable; 2) darling, dear, dearest;
 ~ **do'stim** (*my*) dear friend.

azm (*qaror*) intention; pur-
 pose, firmly; ~ **qilmoq** determine.

azob *n* torture, suffering,
 torment; ~ **bermoq** torment;
 harass; ~ **chekmoq** worry (*about*),
 feel unhappy (*about*).

azoblamoq *v* torment, torture, put to the torture.

azoblamoq *v* worry (*about*), suffer, be tortured.

azon (*ertalab*) *adv* in good time, very early; call to morning prayers; dawn, early morning; **~da** early in the morning; at dawn; **~aytmoq** call to prayers.

azonlab *adv* early in the morning, early.

azonchi *n* muczzin.

paytava *n* foot cloth to wrap the feet before putting on boots.
payvand *n* 1) engraft, ingraft, splice; ~ **qilmoq** graft; 2) welding; **elektr** ~ electric welding.

payvandlamoq *v* 1) graft; slice; 2) weld.
payvasta grow together, knit; ~ **qosh** knit
payshanba *n* Thursday.
payg'ambar *n* prophet.
pazanda *n* cook, skilled-cook, chef.
pashsha *n* fly.
pachog *a* beaten, whipped; squashed, crushed, broken; ~ **bo'lmoq** become crushed,
pachoglamog *v* beat apart, smash flat.
pedagog *n* teacher, educator.
pedagogik *a* pedagogical, educational.
pedagogika *n* pedagogics, pedagogy; ~ **institut** pedagogical Institute.
pesa *n* play.
peyzaj *n* landscape.
peshana *n* forehead.
peshayvon *n* porch, veranda.
peshin *n* noon, peshin, second namaz, midday prayers.
peshvoz *n* meeting; ~ **chiqmoq** meet, go to meet.
pechak *n* bind weed.
pechka *n* stove, oven.
pianino *n* piano; ~ **chalmog** play the piano.
pidjak *n* jacket.
pilik *n* wick; tie string on trousers.
pilla *n* cocoon; ~ **qurti** silkworm.
pillapoya *n* stairs, staircase.
pillachi *n* a human-brooder for silk-worm eggs.
pillachilik *n* silk-weaving.

pilta *n* wick.
pinak *n* drowsiness; ~**ka ketmoq** become drowsy, doze off; day dream.
pinhon *n* secret, covered, concealed, confidential.
piramida *n* pyramid.
pirillamoq *v* flutter, twitch; blink, wink; **chumchuq pirillab uchib ketdi** the sparrow fluttered its wings and flew off.
pirpiramoq *v* shiver, tremble; spin, twist.
pisand worth, value, effort, meaning.
pismi *q* secretive, clandestine.
pista *n* pistachio (*mag'zi*).
pistirma *n* ambush; ~ **qurmoq** set an ambush, lie in wait (*as in hunting*).
pistolet *n* gun, handgun, revolver.
pivo *n* beer.
piyoda 1) on foot, walk; ~ **yurmoq** walk go on foot; 2) passer-by; 3) pawn.
piyola *n* tea bowl.
piyoz *n* onion.
pishiq *a* firm, strong; ~ **g'isht** burnt (*bucket*) brick.
pishirmoq *v* cook, prepare.
pishloq *n* cheese.
pishmoq *v* 1) ripe (*ho'lmeva*); 2) bake; 3) fry (*qovurilmoq*).
pichan *n* hay.
piching *n* tease, caustic comment, rude remark.
pichirlashmoq *v* whisper.
pichoq *n* knife; **osh** ~ table-knife.
pichoqlamoq *v* knife, stab.

plastinka *n* 1) plate; 2) (*grammofon*) gramophone record.
plastmassa *n* plastic.
platforma *n* platform.
plash *n* cloak, rain-coat.
plenium *n* plenum.
plita *n* plate, slab; **gaz** ~ gas stove.
plitka: elektr ~ electric stove.
plomba: tish ~ stopping, filling; **tishga** ~ **qo'ymoq** stop a tooth; fill a tooth.
plug *n* plough, plow; ~ **bilan yer haydamoq** plow.
plyonka *n* film, photographic film or movie.
plyus *n* plus.
poda *n* herd, flock.
podachi *n* herdsman, shepherd.
podpolkovnik *n* lieutenant-colonel.
podsho *n* king, podishah,
podsholik *n* kingdom, empire; ~ **qilmoq** rule.
pok *a* very clean, pure.
pokiza *a* tidy, clear, neat, clean.
pol *n* floor.
poligrafiya *n* polygraphy.
poliklinika *n* polyclinic; outpatients' clinic.
politexnika *n* polytechnic.
politsiya *n* police; policeman.
poliz field; **qovun** ~i melon field.
polk *n* regiment.
polkovnik *n* colonel.
polvon *n* athlete, wrestler.
polyak *n* Pole; ~ **tili** the Polish language.
pomidor *n* tomato.

pona *n* wedge.
popishak *n* hoopoe.
popuk *n* brush; fringe, tassel.
pora I *n* money; bribe, graft; bribe money; ~ **bermoq** bribe, give a bribe.
pora II *n* piece, part; group, sector; ~ **qilmoq** beat to pieces.
poraxo'r *n* bribe-taker, grafter.
port *n* port; harbor.
portlamog *v* explode; burst; be blown up.
portlatmog *v* detonate, explode;
bomba ~ detonate a bomb.
portlovchi *a* explosive; ~ **moddalar** explosives.
portret *n* portrait; picture.
poshon *n* traffic cop, policeman; guard.
posilka *n* parcel.
poxol *n* straw.
poya *n* stalk, stem.
poyabzal *n* footwear, shoes.
poyafzal *n* footwear, shoes.
poyandoz *n* carpet laid down for the arrival of guests.
poydevor *n* basis, foundation;
bino ~i building foundation.
poyezd *n* train.
poyga *n* horse-race, galloping.
poygachi *n* racer, participant in a horse race.
poylamog *v* 1) be on the watch (*for*); lie in wait (*for*); 2) wait (*for*); 3) watch, guard.
poytaxt *n* capital; ~ **shahar** capital city.
poytesha *n* large carpenter's axe.
pog'ona *n* step, rung, level; stage (*of growth, development*).

poshna *n* heel.
poshnalik *n* heeled, having heels.
pocha *n* shank, hock, shin, calf; cuff.
pochta *n* 1) post; 2) mail.
pochcha *n* brother-in-law.
predmet *n* subject.
press *n* press, journalist.
prezident *n* president.
primus *n* primus stove.
probka *n* cork; stopper.
professor *n* professor.
profilaktika *n* profilactic measure.
projektor *n* searchlight.
prokat *n* hire, rental; ~ **ga olmog** hire.
prokuror *n* public prosecutor.
proza *n* prose.
prujina *n* spring.
psixologiya *n* psychology.
puf *n* blowing.
pufak *n* 1) blister (*kuyganda*); 2) bladder.
pufakcha *n* bubble.
puflamog *v* blow.
puflash *n* blowing; ~ **naychasi** glass-blowing.
pul *n* money.
pulemyot *n* machine-gun.
pullamog *n* sell, market.
pullik *n* money, pecuniary.
punkt *n* point, dot; **tibbiyot** ~i dispensary.
punktuatsiya *n* punctuation.
purkamoq *n* sprinkle, spray.
puxta *a* firm, stable, solid, durable.
puxtalik *n* firmness, stability, solidity, durability.

pushmon *n* regret.

pushti *a* pink, rosy.

puch *a* empty, hollow, vacant.

puchuq *a* snub-nosed; ~ **burun** turned-up nose.

po'k *a* tree sap (*mulberry and willow*) used to make dye; empty.

po'kak *n* cork, lug, stopper.

po'lat *n* steel.

po'panak *n* mildew, mold.

po'pisa *n* threat, intimidation;

~ **qilmoq** threaten, intimidate.

po'st *n* thin skin.

po'stak *n* sheep-skin.

po'stloq *n* bark.

po'sht look out, take care, watch out.

po'choq *n* shell, husk, peeling;

qovun po'chog'i water-melon rind.

Qq

qabih *a* foul.

qabila *n* clan, tribe.

qabilaviy *a* tribal; ~ **urf-odatlar** tribal customs and habits.

qahohat *n* evil deed.

qabr *n* grave.

qabriston *n* graveyard, cemetery.

qabul *n* 1) reception; 2) admittance; ~ **qilmoq** receive; take; accept. ~ **punkti** receiving station for agricultural products.

qabulxona *n* reception room, waiting-room.

qad *n* body, figure, form.

qadah *n* goblet, cup.

qadalmoq *v* be thrust, stuck into; repair by sewing.

qadam *n* pace, foot step; ~ **qo'ymoq** take steps; ~ **baqadam** step by step.

qadamog *v* thrust, stick, tie.

qadimgi *a* ancient, past, old, former; antique; ~ **dunyo** antiquity.

qadoq *n* corn, thickened skin.

qadr *n* price; cost, value; ~

qilmoq value, estimate.

qadrdon *a* intimate, close.

qadrdonlik *n* intimate, close friendship.

qadrlamoq *v* value, estimate.

qadrli *a* valuable, estimate.

qadrsizlanmoq *v* loss value, become worthless.

qafas *n* cage.

qahqaha *n* loud laughter.

qahr *n* anger, wratch, fury.

qahramon *n* hero; ~ **ayol** heroine.

qahramonlarcha *adv* heroically.

qahramonlik *n* heroism.

qahrilanmoq *v* be angry with, become furious.

qahrli *a* angry, wrathful, farous, violent.

qahva *n* coffee.

qalam *n* pencil.

qalamdon *n* pencil-case.

qalamkash *n* writer.

qalampir *n* pepper.

qalamtarosh *n* penknife.

qalamcha *n* handle; cutting for planting.

qalandar *n* wandering dervish, hermit.

qalay I *pron* how? ~ **siz?** how are you?

qalay II *n* tin.

qalb *n* heart

qalbaki *n* false, forged, imitation.
qaldirg'och *n* swallow.
qalin I *n* bride-price paid by the groom's expenses.
qalin II *a* thick, stout, coarse, dence.
qalplashmoq *v* thicken, become thick.
qalinlik *n* thickness.
qalliq *n* bride, fiancé.
qallob *n* swindler, cheater.
qalloblik *n* swindling, cheating;
 ~ **qilmoq** swindle, cheat.
qalpoq *n* brimless felt hat.
qalqimoq *v* ascend, rise to the surface; bob up.
qalqon *n* shield.
qaltiramoq *v* tremble, shiver, shake.
qaltirash *n* shaking, trembling.
qaltis *a* risky, dangerous, perilous.
qal'a *n* fortress, fort, fortified city.
qamamoq *v* enclose, jail.
qamish *n* reed; reeds, rushes, cane.
qamishzor *n* reed-bed.
qamoq *n* arrest, prison; ~**qamolmoq** arrest.
qamoqxona *n* prison, jail.
qamramoq *v* encompass, encircle, embrace.
qamchi *n* whip, knout.
qamchilamoq *v* whip, beat.
qanaqa *pron.* what kind, which.
qand *n* sugar, sweets.
qanday *pron* what, which, how;
 ~ **bo'lsa ham** somehow.
qandaydir *pron* some kind of.
qandayin *pron* how.

qandil *n* lustre, chandelier, lampshade, shade.
qani I *int* well, so, how.
qani II *pron* where.
qanoat *n* contentment, conviction; ~ **qilmoq** be content.
qanoatlanarli *n* contented, satisfied.
qanor *n* sack.
qanot *n* wing.
qanotli *a* winged, with wings.
qanotsiz *a* wingless.
qancha *pron* how much, how many, how long (**vaqtga oid**).
qanchaga for how much, to what extent.
qanchalik how much, as far as.
qaqshamoq *v* crack (*from heat and aridity*).
qaqshatqich *a* destructive, rage.
qarab *adv* according to, concerning, concerningly; depending on, along.
qaraganda *adv* in comparison (*with*).
qaram *a* dependent on; ~ **bo'lmoq** be subordinate.
qarama-qarshi *prep* opposing, facing each other.
qarama-qarshilik *n* contrast.
qaramasdan *prep* despite, in spite of, regardless.
qaramay *prep* in spite of, despite
qaramlik *n* dependence, subordination.
qaramoq *v* 1) look at, glance;
oynaga ~ look at oneself in the mirror; 2) look after (**qidirmoq**);
qaratilmoq *v* be indicated, be bedirected at, adjusted to.

qaratmoq *v* indicate; direct, adjust to.

qaratqich *n* indicator; indicating; ~ **kelishigi** genitive case.

qarag'ay *n* pine, pine-tree.

qarash *n* outlook, viewpoint; **o'z vazifasiga vijdon bilan** ~ having a good attitude toward the duty.

qarashli *a* belonging to, subordinate; **bu kitob menga** ~ this book belongs to me.

qarashmoq *v* help as a group; look as a group.

qardosh *n* 1) relative, relation, kinsman; 2) friend.

qari *a* 1) old, old-aged; 2) old man.

qarimoq *v* grow, old.

qarindosh *n* relative, relation, kinsman.

qarindoshchilik *n* kinship.

qariya *n* old person.

qariyib *prep* about, nearly.

qarich *n* traditional measure of length (20 centimeters).

qarmoq *n* fishing rod.

qaro *a* black.

qaror *n* decision, resolution; decree; ~ **qabul qilmoq** adopt a resolution.

qarorgoh *n* place of residence of a high official or government leader; **prezident** ~i the president's residence.

qar:vsiz *a* neglected, uncared for, rejected; homeless; ~ **holda bo'lmoq** be in a state of neglect.

qarsak *n* applause; **gulduros** ~lar storm of applause; ~ **chalmoq** applaud.

qarsilamoq *v* make a clapping noise; crack, snap.

qarta *n* card (*o'ynaladigan*).

qarz *n* debt; ~ **bermoq** lend; be indebted; ~ **olmoq** borrow.

qarzdor *n* debtor.

qarg'a *n* crow, rook.

qarg'amoq *v* caw, scold, screech (*crow like*); curse, swear.

qarshi *adv* against, opposite, contrary to.

qarshilik *n* resistance; ~ **qilmoq** resist.

qasam *n* oath, vow; ~ **ichmoq** swear.

qasd *n* intention, endeavour, premeditation; ~ **qilmoq** wish ill.

qasddan *adv* intentionally, deliberately.

qasida *n* qasida (*a triumphal poem praising a person or event*).

qasos *n* revenge, avenge; ~ **olmoq** revenge oneself for.

qasr *n* castle, fort.

qassob *n* butcher.

qat *n* layer, level, story, floor.

qatag'on *a* ban, prohibition; banned, forbidden.

qatiq *n* sour milk.

qatl *n* murderer, assassin.

qatlam *n* layer, coating; stratum.

qatlamoq *v* fold, pleat, put layer upon layer.

qatlanmoq *v* bend, fold, pucker, become stratified.

qatnamoq *v* attend, participate; frequent; **darslarga** ~ attend lessons.

qatnashish *n* activity, participation, attending.

qatnashmoq *v* take part in, attend, go, visit.

qatnashuvchi *n* participant, participator, partner.

qatnov *n* running, movement.

qator *n* row, line; **beshinci** ~ **da o'tirmoq** sit in the fifth row.

qatra *n* drop.

qatra-qatra drop by drop.

qattiq *a* hard, solid; (**chidamli**) firm.

qattiqlashmoq *v* harden, grow solid.

qat'iy *adv* definitely, absolutely, finally; ~ **nazar** irrespective of, regardless of, independently of.

qat'iy *adv* categorically, decisively, resolutely.

qat'iyat *n* explicitness, definiteness, precision.

qat'iylik *n* definiteness, precision.

qavariq *n* corn, swollen, thickened skin.

qavarchiq *n* blister, pustule, small corn/callous.

qavarmoq *v* swell; be puffed out, be puffy, be puffed up.

qavat *n* floor; **beshinci** ~ fourth floor.

qavim *v* quilt.

qavl *n* words, conversation.

qavm *n* kinsman, clansman, parishoner.

qavrak *n* a perennial mountain grass.

qavs *n* bracket.

qay *pron* what, which; ~ **vaqtda?** when?

qayd *n* mark, notation, impression; ~ **qilmoq** note, register.

qayda *pron* where? at which place?

qaydan *pron* from where.

qayerda *pron* where? In what place?

qayerdan *pron* where... from?

qayerga *pron* where? To what place?

qayerlik *pron* from what place?

qaygadir *pron* somewhere.

qayin *n* birch.

qayinsingil *n* sister-in-law.

qayiq *n* boat.

qayiqchi *n* boatman.

qayirmoq *v* turn back, twist, bind up.

qayish *n* strap, leatherband belt.

qayliq *n* bride, fiancée.

qaymoq *n* cream.

qaynamoq *v* boil; be boiled.

qaynatmoq *v* boil, cause to boil.

qayni *n* brother-in-law (*yungest*).

qaynona *n* mother-in-law.

qaynoq *a* hot, boiled, warm.

qayoqdan *pron* from what place?

qayoqqa *pron* toward what place?

qayrilma *a* curve, curvature, twist.

qayrilmoq *v* be twisted, wound.

qayroq *n* grindstone, whetstone.

qaysar *a* obstinate, stubborn.

qaysarlik *n* obstinacy, stubbornness.

qaysi *pron* which, what.

qayta *adv* again.
qaytadan *adv* again; ~ **yozmog** rewrite.
qaytariq *n* repetition.
qayfarmog *v* turnback, return.
qaytmas *a* unreturning; steadfast, stubborn.
qaytmoq *v* 1) return, come back; 2) refuse, deny (*o'z so'zidan*).
qayg'u *n* care, anxiety, grief, sorrow.
qayg'udosh *n* fellow sufferer, commiserant.
qayg'ulanmog *v* grieve, worry.
qayg'uli *a* sorrowful, grief-stricken.
qayg'urmog *v* worry, sorrow, grieve.
qaychi *n* scissors, shears.
qaychilamoq *v* cut with scissors.
qazi *n* sausage made from raw horsemeat.
qazilma *n* mineral.
qazimog *v* dig, dig up, rummage
qazish *n* digging, excavating, excavation.
qaznoq *n* storeroom, pantry.
qazo *n* fate, destiny; ~ **qilmog** die, perish.
qashimog *v* scratch, itch.
qashlamog *v* scratch, brush, groom.
qashlag'ich *n* brush.
qashqa *a* (white) spot.
qashqir *n* steppe wolf.
qashshoq *a* poor, beggarly.
qashshoqlik *n* poverty.
qachon *pron* when, at what time; ~ **bo'lmasin** whenever.

qachonlardir *adv* whenever, sometimes.

qibla *n* qibla (*the relative direction of Mecca to which Muslims must pray*).

qidirish *n* search, looking (*for*).

qidirmog *v* look for, search (*for*), seek (*sought*).

qil *n* hair.

qiliq *n* action, act.

qilish *n* doing, making.

qilich *n* sword.

qilichboz *n* fencer, swordsman.

qilichbozlik *n* fencing.

qilmaslik *n* not doing/making, inaction, idleness.

qilmog *v* do, make; **ovqat** ~ cook; **sarf** ~ spend; **telefon** ~ phone, ring up.

qiltanoq *n* hairs on a husk of grain, fish bones.

qiltiriq *a* thin, emaciated.

qimirlamoq *v* move, stir; start.

qimiz *n* kumiss, fermented mare's milk.

qimmat *a* dear, expensive, costly.

qimmatbaho *a* precious, priceless; ~ **qog'oz** legal tender, paper money.

qimmatlashmog *v* rise in price.

qimmatli *a* 1) precious; 2) dear, sincerely.

qimor *n* gambling.

qin *n* socket, sheath.

qing'ir *a* crooked, curved.

qipiq *n* sawdust.

qir I *n* uplands, hilly steppe zone with flat expanses caused by erosion; high steppe.

qir II *n* glance.

qirindi shavings (*wood, metal*), shearings, clippings.

qirish *n* destroying, extermination.

qirmiz *a* red, rosy.

qirmoq *v* 1) scrape; 2) destroy, ruin.

qiroat *n* recitation, reading, lecture; ~ **qilmoq** recite, read aloud.

qiroatxona *n* lecture hall, room for recitations.

qiroq *n* king.

qirolik *n* kingdom.

qirolicha *n* queen.

qirov *n* hoarfrost.

qirq *num* forty.

qirqilmoq *v* be sheared (*sheep*), shaved, planed (*wood*); crossed, intersected.

qirqinchi *num* fortieth.

qirqmoq *v* 1) shear (*sheep*), shave, plane (*wood*); cut; 2) cross, intersect.

qirqoyoq *n* centipede.

qirqquloq *n* fem.

qirra *n* brim, edge.

qirillamoq *v* crack, crackle.

qiruvchi *a* fighter, destroyer.

qirg'in *n* slaughter, destruction, extermination.

qirg'iz *n* Kirghiz; ~ **tili** the Kirghiz language.

Qirg'iziston *n* Kirghizstan

qirg'ich *n* scraper.

qirg'oq *n* shore, sea, coast (*dengizniki*); bank (*daryoniki*).

qirg'ovul *n* pheasant.

qirchillama *a* prime of life, mature.

qirsilmoq *v* be squeezed.

qisiq *a* squeezed, compressed, tight; ~ **ko'z** squinting eyes; **Sardorning tili** ~ Sardorning should shut up.

qisir *a* infertile, barren (*animals*); ~ **sigir** infertile cow.

qisirlamoq *v* crack, crackle (*sound*).

qism *n* 1) part, share; 2) unit.

qisman *n* 1) partial; 2) in particular.

qismat *n* fate, destiny.

qismoq *v* press, compress, squeeze, tighten; **qo'l** ~ shake smb's hands; **yelka** ~ shrug one's shoulders.

qisqa *a* short; ~ **gaplar** short sentences.

qisqarmoq *v* reduce, shorten.

qisqartirish *n* shortening, abbreviation.

qisqartirmoq *v* shorten, abbreviate, abridge.

qisqartma *n* abbreviation.

qissa *n* story, narrative.

qistamoq *v* 1) hurry, hasten; 2) accelerate, speed up.

qisqich *n* 1) (*pair of*) tongs, zweezers, pincers.

qisqichbaqa *n* crayfish.

qitiq *n* tickling.

qitiqlamoq *v* tickle.

qit'a *n* continent.

qiya *a* slope.

qiyalik *n* descent.

qiy-chuv *n* noise.

qiyin *a* difficult, complicated, heavy.

qiyinlashmoq *v* become difficult (*complicated*).

qiyinlik *n* difficulty, complexity.

qiyinchilik *n* difficulty.
qiyma *n* stuffing, minced meat;
go'shtni ~ qilmoq stuff.
qiyimalamoq *v* shred, tear into pieces.
qiyimat *n* value, cost, importance.
qiyomoq *n* 1) cut; 2) shear (*qo'y yungini*).
qiynalmoq *v* 1) suffer (*from*), suffer (*for*); 2) be in a difficulty; 3) suffer torment.
qiynamoq *v* 1) make difficult; 2) trouble, embarrass.
qiyonoq *n* torture, torment.
qiyofa *n* appearance, figure.
qiyom I *n* noon, midday.
qiyom II *n* jam.
qiyomat *n* Islamic judgement day.
qiyos *n* comparison; ~ **etmoq** compare.
qiyosan *adv* in comparison with, relative to, compared to.
qiyosiy *a* comparative; ~ **daraja** comparative degree.
qiyoslamoq *v* compare.
qiyqim *n* rag, shred.
qiyqiriq *n* noise, shout.
qiyqirmoq *v* shout, cry, make a noise.
qiyshiq *a* crooked, curved.
qiz *n* girl, daughter.
qizarmoq *v* turn red, grow red, blush, ripen.
qizdirmoq *v* heat, heat up.
qizil *n* red, red-hot.
qizilishton *n* woodpecker.
qizilcha *n* beet.
qizimoq *v* 1) get hot, glow, get red hot; 2) get angry, get excited.

qiziq *a* interesting, amusing, funny.
qiziqarli *adv* interesting, interestingly.
qiziqish *n* interest.
qiziqirmoq *v* interest, attract.
qiziquvchi *n* enthusiast, fan, interested person; **ingliz tiliga** ~ someone interested in English.
qiziqchi *n* clown, comedian, humorist.
qizitmoq *v* to heat, heat up.
qizishmoq *v* get angry, become heated.
qizg'anmoq *v* feel sorry (*pity*) for.
qizg'anchiq I *a* jealousy, greed, envy.
qizg'anchiq II *adv* 1) envious, jealous; 2) greedy.
qizg'in *a* hot, feverish, warmly.
qizg'ish *a* reddish, rust colored; lapwing, peewit.
qish *n* winter; ~**da** in winter; ~**in-yozin** all the year round; ~**ki** wintry, winter (*adjective*); ~**lamoq** spend the winter (*at, in*) hibernate (*hayvon va qushlar haqida*); ~**lik** wintry; ~**lov** winter pasture; ~**lovchi** worker at winter pasture.
qishloq *n* rural, village; ~ **xo'jaligi** agriculture; ~**da** in the country; ~**qa** to the country; ~**i** villager.
qichima *n* itch.
qichimoq *v* scratch oneself.
qichiq *n* flirting.
qichitqi *a* stinging; ~ **o't** stinging nettle, thistle.
qichishmoq *v* scratch oneself.

qichqiriq *n* shout, cry.
qichqirmoq *v* shout, cry out.
qobil *a* 1) obedient; 2) capable
 (of).
qobiliyat *n* capability (*for*).
qobiliyatli *a* 1) able, clever (*at*);
 2) capable (*of*).
qobiliyatsiz *a* incapable, unfit,
 dull.
qobiq *n* 1) (*daraxtning*) bark;
 2) (*yerniki*) crust.
qodir *a* capable (*for*); ~ **bo'lmoq**
 be capable (*of*).
qofiya *n* rhyme.
qoida *n* rule; **ko'cha harakati**
 ~ **lari** traffic regulations.
goldiq *n* 1) rest, remainder;
 2) remnant (*material*).
qoldirilmoq *v* be deferred,
 postponed, suspended.
qoldirmoq *v* 1) leave, abandon;
 2) postpone (*kechiktirmoq*).
qolip *n* standard, model.
qolishmoq *v* remain together.
qolmoq *v* stay, remain; **kech** ~
 be late; **charchab** ~ be tired; **orqada**
 ~ lag behind.
qoloq *a* backward; ~ **o'quvchi**
 backward pupil; ~ **mamlakat**
 undeveloped country.
qoloqlik *n* backwardness;
 outmoded, old-fashioned.
qomat *n* figure, body, shape.
qomus *n* encyclopaedia.
qon *n* blood ~ **yutmoq** be grief
 stricken; **uning rangida** ~ **qolmadi**
 he (*she*) became pale; **uning**
zuragi ~ **bo'ldi** his (*her*) patience
 was exhausted; ~ **yig'lamoq**
 bitterly weep; ~ **to'kish** blood-

letting; **kam** ~ **lik** anemia; ~
beruvchi blood donor.
qonamoq *v* bleed.
qondirmoq *v* satisfy. **Bu baho**
ularning talablarini qondira ol-
maydi. This mark cannot satisfy them.
qondosh *n* blood brother, close
 friend.
qoniqarli *a* satisfied.
qoniqarsiz *a* unsatisfactory,
 dissatisfying.
qoniqish *n* satisfaction.
qoniqmoq *v* be satisfied.
qoniqtirmoq *v* satisfy.
qonli *a* bloody.
qonmoq *v* be satisfied; **uyquga**
 ~ have enough sleep; **diydoriga** ~
 see enough; look as much as one
 wants to.
qonsiz *a* anaemic, bloodless.
qonsizlik *n* bloodlessness,
 anemia.
qonun *n* law.
qonunbuzar *n* law-breaking,
 law-breaker.
qonunbuzarlik *n* infraction or
 violation of the law.
qonuniy *a* legal, legitimate.
qonuniyat *n* legality.
qonunlashtirmoq *v* legalize.
qonunsiz *a* illegal, illegitimate,
 illicit.
qonunshunos *n* legal scholar.
qonunchilik *n* lawfulness,
 legality.
qonxo'r *a* bloodthirsty; cruel
 person.
qop *n* sack.
qoplamoq *v* cover (*with*).
qoplon *n* leopard.

qorpmoq *n* bite.
qorqon *n* snare, trap.
qorqoq *n* cover, lid.
qoq *n* dry, parched.
qoqi *a* desiccated, dried; **olma**
 ~ dried apple.
qoqilmov *v* 1) stumble (*over*);
 2) make mistake; 3) failure.
qoqimmoq *v* strike oneself.
qoqmoq *v* 1) knock, beat; 2) shake
 out.
qor *n* snow; ~ **yog'yapti** it is
 snowing.
qora *n* black; ~ **metall** ferrous
 metals.
qoraarcha *n* juniper.
qorabaliq *n* trout.
qorabug'doy *n* spelt, german
 wheat.
qoradaraxt *n* barren tree.
qoradori *n* opium.
qorailon *n* viper.
qorajigar *n* spleen.
qorako'l *n* astrakhan. ~ **teri** the
 tightly curled dark pelt of an
 Astrakhan lamb.
qorako'Ichilik *n* qorakul
 sheep or Astrakhan lamb raising.
qorako'z *n* black eyed.
qorakuya *n* soat.
qoralamoq *v* blaken; slander.
qoralovchi *n* prosecutor;
jamoat ~si public prosecutor.
qoramag'iz *n* darl, swarthy.
qoramiq *n* corn-cocle.
qoramol *n* cattle.
qoramoy *n* resin, pitch, tar
 (*suyuq*).
Qoraqalpoq *n* Karakalpak; ~ **tili**
 the Karakalpak language.

qoraqarg'a *n* crow, raven.
qoraqosh *n* black browed.
qoraquoloq *n* steppe lynx.
qoraqurt *n* steppe spider
 (*poisonous*).
qoraquyruq *n* gazelle.
qoratuproq *n* black soil.
qoraqush *n* steppe eagle.
qoraymoq *v* turn black, show
 black; 2) (*quyoshda*) become
 sunburnt.
qoraytirmoq *v* cause to be black.
qoracha *a* darkish, brownett.
qori *n* qoran reciter (*from*
memory).
qorin *n* stomach, belly; (*anat*)
 ~ **bo'shlig'i** abdominal cavity.
qorishma *n* mixture.
qorishmoq *v* mingle, mix toge-
 ther.
qorishtirmoq *v* mix; blend
 (*colors, paints*).
qorli *a* snowy.
qormoq *v* 1) mix; 2) knead (*loyni*).
qorong'i *a* dark, it is dark; ~
tushmoq get dark.
qorong'ilamoq *v* darken, become
 dark.
qorong'ilashmoq *v* darken.
qorong'ilik *n* darkness.
qorovul *n* 1) guard, watchman.
 warer (*qamoqda*); 2) janitor, yard-
 keeper.
qotil *n* murderer, killer, assassin.
qotillik *n* murder.
qotirmoq *v* dry up; **bosh** ~ rack
 one's brains over smth.
qotishma *n* alloy; **sof** ~ pure
 alloy.
qotma *a* thin; dry; stale.

qovoq I *n* pumpkin; **oyim** ~ pumpkin, edible squash.

qovoq II *n* eyelid; ~ **solmoq** frown, look menacingly.

qovun *n* melon; ~ **polizi** melon-field.

qovurdoq *n* roast meat.

qovurma *n* fried.

qovurmoq *v* fry, roast.

qovurg'a *n* rib.

qovushmoq *v* copulate, mate.

qovnshmoqlik *n* mating, copulating.

qovushtirmoq *v* bring together, cause to unite.

qoya *n* rock.

qoyali *a* rocky.

qoyil *adv* pleased, satisfied; ~ **qilmoq** do something well.

qoziq *n* stake, peg.

qozon *n* 1) copper; pot; 2) boiler

qozonmoq *v* win, score; earn, gain, acquire; **g'alaba** ~ score a victory.

qozoq *n* Kazakh; ~ **tili** the Kazakh language.

qog'oz *n* paper.

qosh *n* eyebrow, brow.

qoshida *prep* in the presence of; at, by, near. **Litsey** ~ **kutubxonabor**. There is a library at the lyceum.

qoshiga *prep* to, toward.

qoshiq *n* spoon; **bir** ~ **qonidan** **kechmoq** be merciful (*refrain from a spoonful of blood*).

qochirmoq *v* let escape; **ko'zdan** ~ (**yoki nazardan**) ~ lose sight (*of*).

qochmoq *v* 1) run away; 2) avoid, elude, evade; 3) escape.

qubha *n* dome.

quda *n* match-maker; father of the son-in-law, father of the daughter-in-law.

qudrat *n* power, might.

qudratli *a* powerful, mighty.

quduq *n* well (*for water*).

qul *n* slave; ~ **qilmoq** enslave.

qulamoq *v* fall, drop, crash down; be destroyed.

qulatmoq *v* cause to fall.

qulay *a* 1) comfortable; 2) convenient, favourable; ~ **fursat** opportunity.

qulaylik *n* comfort, convenience; **hamma~lar mavjud bo'lgan uy** flat with all modern conveniences.

qulf *n* 1) lock, padlock; 2) under lock and key (**berk**).

qulflamoq *v* lock (*up*), shut up.

qullik *n* slavery, servitude.

qulluq *n* thanks, thank you; ~ **qilmoq** thank.

quloq *n* ear; ~ **solmoq** listen.

qultum *n* swallow, mouthful.

qulupnay *n* strawberry.

qum *n* sand.

qumalamoq *v* somersault, tumble.

qumli *a* sandy, sand; ~ **sahro** sand desert.

qumlik *n* sands.

qumsichqon *n* desert rat.

qumg'on *n* pitcher with beak and handle.

qunduz *n* beaver.

qunt *n* resoluteness, determination, endeavour, diligence, effort.

qurb *n* strenght ~ **im yetmaydi** I am not in condition.

qurbaqa *n* frog.

qurbon *n* sacrifice; ~ **qilmoq** sacrifice. ~ **bo'limoq** become a victim.

qurbonlik *n* sacrificial animal.

qurigan *a* dried-up, withered (*o'simlik*); wizened (*kishi haqida*).

qurilish *n* building, construction.

qurimoq *v* dry up, wither (*o'simlik haqida*).

quritmoq *v* 1) dry; 2) liquidate, eliminate, abolish.

qurishmoq *v* build together/ mutually.

qurmoq *n* build, construct, mount.

qurol *n* 1) weapon, arms; ~**ni tashlamoq** lay down arms; **yadro -lari** nuclear weapons 2) instrument, tool.

quroldosh *a* armed ~ **do'stlar** comrades-at-arms.

qurollanmoq *v* arm (*oneself*), take up arms.

qurollantirmoq *v* arm.

qurolli *a* armed.

qurolsizlanmoq *v* disarm oneself; get dismantled.

qurolsizlantirilmoq *v* be disarmed.

qurolsizlantirish *n* disarmament.

qurolsizlantirmoq *v* disarm.

qurolxona *n* armory.

quroq *n* rag, scrap.

qurt *n* caterpillar; (*ipak qurti*) silkworm.

qurtlamoq *v* have worms.

qurultoy *n* congress.

qurumsoq *a* stingy.

quruq *a* dry; ~ **gap** chatter, jabber, twaddle; ~ **uy** vacant house; **do'kondan** ~ **keldin** I came from the shop empty-handed.

quruqlik *n* (*dry*) land; ~**dagi kuchlar** ground forces.

quruqchilik *n* drought.

qurat *n* dried milk.

quruvchi *n* builder, construction worker.

qurg'oqchilik drought; ~**ka qarshi kurash** combating drought.

qurshamoq *v* surround (*with*).

qurshov *n* encirclement; ~**da qo'imoq** be encircled; 2) environment.

qur'on *n* qoran, Qur'an.

qusmoq *v* vomit, throw up.

qusuq *n* vomit.

qutb *n* pole.

quti *n* 1) box; 2) urn; **saylov -si** ballot-box.

qutilmoq *v* free oneself. **Og'ir ahvoldan** ~ **yo'lini topmoq**. Find a way out of a difficult situation.

qutlamoq *v* congratulate (*on*).

qutlov *n* congratulation.

qutlug' : **Yangi yilingiz ~ bo'lsin!** Happy new year!

qutqarish *n* saving.

qutqarmoq *v* set free, release, liberate (*from*), save, rescue (*xavf-dan*).

qutqazilmoq *v* be saved, be freed.

qutqazmoq *v* save, free.

qutulmoq *v* 1) free oneself, get free; 2) escape.

quturmoq *n* rage.

quvilmoq *v* be pursued.

quvlamoq *v* 1) pursue, hunt (*after*), strive (*for*); 2) drive (*poda va h.k. larni*).

quvmoq *v* pursue, hunt (*after*).

quvnamoq *v* be happy.

quvnoq *a* merry, gay.

quvnoqlik *n* gaiety, cheerfulness, merriment, merrymaking, fun.

quvonib *adv* gladly, with joy.

quvonmoq *v* make merry, have fun, enjoy oneself.

quvontirmoq *v* cause to have fun.

quvonch *n* joy, gladness; ~ *bilan* with joy.

quvonchli *a* glad, joyful.

quvur *n* chimney, pipe; **gaz ~lari** gas pipeline.

quvurcha *n* tubing, narrow tube.

quvvat *n* 1) power, might; 2) power, capacity; ~**ga kirmoq** gain one's strength, recover.

quvvatlamoq *v* intensify, support.

quvvatlanish *n* strengthening.

quvvatli *a* strong, powerful.

quvvatsiz *a* feeble, weak.

quvg'in *n* exile; ~ **qilmoq** banish, exile (*surgun qilmoq*).

quydirmoq *v* let pour.

quyi *a* low, bottom.

quyida *adv* below, on the bottom.

quyidagi *a* following.

quyma *n* 1) cast; 2) casting.

quymoq *v* pour; **yomg'ir chelaklab quygandek yog'moqda** It is raining cats and dogs.

quyon *n* hare, rabbit; **Ikki ~ning ketidan quvlasang, birini ham ushlay olmaysan (maq.)** If you run after two hares, you will catch none (*prov.*).

quyonchilik *n* rabbit raising.

quyosh *n* sun.

quyoshli *a* sunny.

quyruq *n* tail, brush (*tulkiniki*).

quyulmoq *v* thicken, get (*yoki become*) thick.

quyun *n* whirlwind.

quyuq *a* thick, dense.

quyuqlanish *n* concentration.

quyuqlashmoq *v* thicken, get (*yoki become*) thick.

qush *n* bird.

quchmoq *v* embrace; **beldan** ~ embrace by the waist; **bolani** ~ hug a child.

quchoq *n* embrace, hug.

quchoqlamoq *v* embrace, fold in one's arms.

qo'l *n* 1) hand; 2) signature; ~ **qo'ymoq** sign.

qo'lbola *n* homemade, hand-made.

qo'llamoq *v* 1) support; 2) use.

qo'llanilish *n* use, utilization.

qo'llanma *n* manual, hand book.

qo'llanmoq *v* be used, utilized.

qo'lqop *n* glove.

qo'ltiq I *n* armpit, underarm.

qo'ltiq II *n* bay, gulf, creek;

U dengiz qo'ltiq'iga ketmoqda. He is going to the bay.

qo'ltiqlamoq *v* hold under arm.

qo'ltiqtayoq *n* crutch.

qo'lyozma *n* manuscript.

qo'mita *n* committee.
qo'mondon *n* commander.
qo'mondonlik *n* command, headquarters; ~ **qilmoq** give orders, command.
qo'msamog *v* miss someone; be bored.
qo'ndoq *n* butt.
qo'nish *n* landing; **samolyot-larning** ~ **va uchishlari** the landing and take-off of airplanes.
qo'mmog *v* 1) land; 2) settle down.
qo'ng'ir *a* brown.
qo'ng'iroq *n* bell; ~ **chalmoq** ring; ~ **qilmoq** ring up, phone (**telefon orqali**).
qo'ng'iz *n* beetle; **tilla** ~ may-bug.
qo'pol *a* rude, rough, coarse; ~ **xato** gross error, blunder.
qo'pollik *n* coarseness, rudeness.
qo'pormog *v* overturn.
qo'poruvchilik *n* diversion, sabotage.
qo'qongul *n* aster.
qo'qqisdan *adv* suddenly, all a sudden.
qo'riq *n* virgin land.
qo'riqlamoq *v* defend (*from*).
qo'riqxon *n* reserve, preserve; nursery.
qo'riqchi *n* guard, scarecrow.
qo'rqinch *n* fear, terror.
qo'rqinchli *a* fearful, terrible, dreadful.
qo'rqitmoq *v* frighten; scare.
qo'rqmas *a* brave, bold.
qo'rqmoq *v* fear.
qo'rqoq *a* fearful, cowardly.

qo'rqoqlik *n* cowardice.
qo'rquv *n* horror, terror.
qo'rs *a* rude.
qo'rslik *n* rudeness.
qo'rg'on *n* 1) fortress; 2) barrow, tumulus.
qo'rg'oshin *n* lead.
qo'tir I *n* itch, scab; (**hayvonlarda**) mange.
qo'tir II *a* scabby; mabgy.
qo'ton *n* flock
qo'tos *n* zool. yak.
qo'y *n* sheep; ~ **terisi** sheep-skin; ~ **go'shti** mutton.
qo'yilmoq *v* be placed.
qo'yin *n* bosom; ~ **ida** in one's bosom.
qo'yishmoq *v* put (*mutual*).
qo'yimoq *v* put, place, set.
qo'ychi *n* shepherd.
qo'ychilik *n* shepherding.
qo'zi *n* lamb.
qo'zilamoq *v* lamb.
qo'ziqorin *n* mushroom.
qo'zichoq *n* little lamb (*term of endearment*).
qo'zg'almoq *v* start; stand (*up*).
qo'zg'amoq *v* arise, renew.
qo'zg'atmoq *v* lift; **masalani** ~ raise a question; **o'rnidan** ~ remove.
qo'zg'olon *n* rebellion, revolt, insurrection; **milliy ozodlik** ~i rebellion for national liberation.
qo'zg'olonchi *n* rebel.
qo'g'irchoq *n* doll; ~ **teatri** puppet-show; puppet theatre.
qo'sh *n* pair; harness.
qo'shaloq *a* double, twofold.
qo'shilish *n* inclusion, annexation.

qo'shilma *n* formation, combination; **harbiy** ~ military formation; **kimyoviy** ~ chemical compound.

qo'shilmog *v* join.

qo'shimcha *n* additional, supplement.

qo'shin *n* 1) troops; 2) army, force.

qo'shiq *n* song; ~ **aytmoq** sing a song.

qo'shma *a* joint; ~ **gap** composite sentence.

qo'shmoq *v* 1) joint; 2) unite; 3) add.

qo'shni *n* neighbour; **qo'ni** ~ neighbors; ~ **mamlakatlar** neighbouring countries.

qo'shnihilik *n* neighbourhood.

qo'shqavat *a* two storied, double layered.

qo'shtirnoq *n* inverted commas, quotation marks.

qo'shtig' *n* double edged.

qo'shuv *n* addition.

qo'chqor *n* ram, male sheep.

Rr

rad *n* rejection, denial; ~ **etmoq** reject.

radiator *n* radiator.

radio *n* radio, wireless; ~ **orqali** **eshittirmoq** broadcast.

radioeshittirish *n* radio broadcasting.

radiogramma *n* radiogram.

radiouzel *n* radio station, radio dispatching point.

radiochi *n* radio operator.

radius *n* radius.

rafiqa *n* wife, female friend; **do'stim va uning** ~ **si** my friend and his wife.

rahbar *n* leader, instructor, manager.

rahbarlik *n* guidance; direction; leadership.

rahm *n* pity; ~ **qilmoq** be sorry (*for*).

rahmat *n* gratitude; ~ **aytmoq** to thank; **Katta** ~! Thank you very much!

rahmatli *a* deceased; ~ **xolang** your deceased aunt.

rahmdil *a* kind, merciful, compassionate.

rahmli *a* pitiful, merciful.

rahmsiz *a* pitiless, unmerciful, merciless.

rahna *n* breach, break, fracture; ~ **solmoq** breach.

rahnamo *n* guidebook.

rais *n* chairman.

raislik *n* chairmanship; ~ **qilmoq** act as chairman.

raketa *n* rocket; missile.

ramz *n* symbol, allusion, allegory.

randa *n* planer.

randalamoq *v* plane, smooth.

rang *n* colour.

rangli *a* coloured; ~ **film** coloured film; ~ **metallar** non-ferrous metals.

rang-ro'y *n* facial appearance; **Barnoning** ~ **i yaxshi**. Barno looks healthy.

rangsiz *a* colorless, pale.

ranjimoq *v* take offence, be offended, feel hurt.

ranjitmoq *v* offend, annoy.
raport *n* report.
raqam *n* statistics, number.
raqamlamoq *v* number, enumerate.
raqib *n* opponent, competitor, rival.
raqiblik *n* opposition, competition; ~ **qilmoq** oppose.
raqobat *n* competition, contention, rivalry.
raqobatlashmoq *v* complete, contend.
raqobatlilik *n* competitive, competing, opposing, rivalling.
raqqosa *n* dancer.
raqs *n* dance; ~**ga tushmoq** dance.
rasadxona *n* observatory.
rasm I *n* picture, sketch, drawing.
rasm II *n* habit, practice.
rasman *a* officially, formally.
rasmiy *a* official, regulated; ~ **xizmat** civil service.
rasmiyat *n* officialness, formality.
rasmiyatchi *n* formalist, person who goes by the rules.
rasmiylashmoq *v* become official.
rasmiylashtirmoq *v* legalize, formalize.
rasmi *a* illustrated, pictured.
raso *a* full, complete.
rassom *n* artist, painter.
rassomlik *n* the profession of being an artist.
rasvo *a* disgraced; ~ **bo'lmoq** be disgraced.

rasvolik *n* disgrace.
ravish *n* *gram.* adverb.
ravishdosh *n* *gram.* verbal adverb, gerund.
ravnaq *n* flourish, lustre; ~ **topmoq** flourish, blossom.
ravo *n* permissible, allowable; ~ **ko'rmoq** permit, allow.
ravon *a* eloquent, smooth, flowing.
ravoq *n* arch, portico.
ravshan *a* bright, light, clear;
kunduzgidek ~ bright as day; ~ **yonmoq** burn brightly.
ravshanlashmoq *v* clear up.
rayhon *n* basil.
rayon *n* district.
rayosat *n* presidium; supremacy, domination; leadership.
razil *a* vile, mean.
razillik *n* meanness.
razryad *n* category.
rag'bat *n* desire, disposition.
rag'ballantirmoq *n* encourage, stimulate.
rashk *n* jealous, envy; ~ **qilmoq** envy, be jealous.
ra'no *n* sweet briar, wild rose.
redaksiya *n* editorial office (**binosi**); (**xodimlari**) editorial staff.
redaktor *n* editor; **bosh** ~i editor-in-chief.
rediska *n* garden radish.
reduktor *n* reduction gear.
referat *n* essay, synopsis, paper.
referendum *n* referendum.
refleks *n* reflex.
reflektor *n* reflector (*in a telescope*).

reforma *n* reform; ~ **o'tkazmoq** reform.

reja *n* plan, draft; first outline; ~ **tuzmoq** plan, make plan.

rejissor *n* producer.

reklama *n* advertisement, commercial (*on radio or TV*); ~ **bermoq** advertise.

rekord *n* record; **jahon ~i** world record.

rektor *n* rector, head of a university.

rels *n* rail, tracks (*of a railroad*).

repetsiya *n* rehearsal.

reportaj *n* reporting, newspaper article.

reportyor *n* reporter, journalist.

respublika *n* republic.

restoran *n* restaurant.

retsenziya *n* review, critique (*of scientific work*).

retsept *n* prescription; ~ **yozmog** to prescribe *smth.*

revmatizm *n* rheumatism.

rezina *n* rubber.

rezinka (*o'chirg'ich*) *n* eraser (*for paper*).

Rim *n* Rome.

rimlik *n* Roman.

rioya *n* conformity, observation; ~ **qilmoq** conform (*keep; adhere*); **qouunga ~ qilmoq** observe the law.

risola *n* brochure, pamphlet.

rivoj *n* development; progress; ~ **topmoq** develop.

rivojlanish *n* developing, progressing, development, progress.

rivojlanmoq *v* develop, progress.

rivojlantirish *n* fostering, developing.

rivojlantirmoq *v* develop.

rivoyat *n* folktale, legend; ~ **qilmoq** recite, narrate.

riyokor *n* hypocrite, sanctimonious person.

riyoziyot *n* mathematics.

rizolik *n* consent, permission.

rizq *n* food, nourishment; serving portion; ~ **nasiba** food (*or smth.*) sent by god.

rishta *n* thread, cord; bonds; relations; **do'stlik ~larin** bonds of friendship; **do'stlik ~larini uz-mang** don't sever the bonds of friendship.

rogatka *n* slingshot, catapult.

rohat *n* enjoyment, pleasure, amusement.

rohatlanmoq *v* enjoy.

rol *n* role, part; ~ **o'ynamoq** play a role or part.

rom I : ~ **bo'lmoq** be tamed, domesticated; ~ **etmoq** tame, domesticated; subjugate.

rom II *n* window frame.

rom III *n* fortune, fate; ~ **ko'r-mog** tell a fortune.

roman *n* novel.

roppa-rosa *adv* exactly, precisely.

rost *a* truthful, correct; truth.

rostakam *a* real, actual.

rostdan *adv* really, actually.

rostlik *n* correctness, properness; truth.

rostgo'y *a* truthful, trustworthy.

rostgo'ylik *n* honesty, trustworthiness.

rola *n* company (*military unit, approximately 100-150 men*).

royal *n* grand piano.

rozi *a* pleased, satisfied, content (*with*); ~ **qilmoq** please, satisfy.

rozilik *n* consent, satisfaction, agreement; ~ **bermoq** consent, allow, agree to.

rubob *n* rubob (*musical instrument*).

rubobchi *n* rubob-player.

ruboiy *n* quatrain.

ruda *n* ore; **temir** ~**si** iron ore.

ruh *n* spirit, courage.

ruhiy *a* mental, spiritual.

ruhlantirmoq *v* inspire.

ruhoniy *n* clergyman; ~**lar** the clergy.

rumin *n* Romanian; ~ **tili** the Romanian language.

rumka *n* wine-glass.

rns *n* Russian; ~ **tili** the Russian language.

rusum *n* customs; **rasm**~ customs and rituals; traditions.

ruscha *a* Russian; ~**cha gapirmoq** speak Russian.

ruxsat *n* permission; ~ **bermoq** permit.

ruxsatnoma *n* permit, visa.

ruxsatsiz *a* unpermitted, unallowed, unpermissible.

ruchka *n* pen; **avto**~ fountain pen.

ro'da *n* grape sprout.

ro'mol *n* shawl, kerchief, scarf.

ro'molcha *n* pocket handkerchief.

ro'para face to face; ~**da** opposite; across the street.

ro'iy *n* face, surface; ~**i zamin** the earth's surface; universe.

ro'yob: ~**ga chiqmoq** be carried out; come true.

ro'yxat *n* list.

ro'yxatchi *n* registrar, census-taker.

ro'znoma *n* newspaper.

ro'zg'or *n* housekeeping.

ro'shnoлик *n* real life; freedom; long expected, day.

Ss

sabab *n* reason, cause; ~ **bo'imoq** be the cause or reason.

sababli *a* because, because of, in consequence of.

sababsiz *a* causeless, groundless, motiveless, without reasons.

sababchi *a* guilty, culprit.

sabo *n* morning breeze, zephyr; morning chill.

saboq *n* lesson, classess.

sabr *n* patience; ~ **qilmoq** have patience; **Biroz sabr qiling!** Wait a little while.

sabrli *a* patient.

sabrsiz *a* impatient.

sabrsizlanmoq *v* be impatient, be anxious.

sabrsizlik *n* impatience.

sabzavot *n* vegetables; ~ **magazini** greengrocery.

sabzi *n* carrot.

sada *n* witch, elm.

sadaf *n* mother-of-pearl.

sadaqa *n* alms, charity, donation; ~ **bermoq** donate, endow; ~ **so'ramoq** ask for charity.

sado *n* sound, voice; **aks** ~ echo.

sadoqat *n* faithfulness, loyalty.

sadoqatli *a* faithful, truth, loyal.

saf *n* rank, line, row.

safar I *n* journey, travel; ~ **qilmoq** travel.

safar II: bu ~ this time; **yanagi** ~ another time, next time.

safarbar: ~ **qilmoq** mobilize.

safdosh *n* comrade-at-arms; companion.

safllamoq *v* line up, put in rows.

safllannoq *v* be lined up.

saf *n* satisfaction, pleasure.

safoli *a* satisfying, pleasing.

saforatxona *n* foreign embassy building.

safsar *n* iris.

safsata *n* babbler, person who talks nonsense.

sahar *n* dawn, early morning; ~**da** at dawn; ~ **turmoq** get up early in the morning.

saharlab *adv* at dawn, in the first light.

sahifa *n* page (*of a book or notebook*).

sahna *n* stage, scene; arena, exhibition hall; ~**ga chiqmoq** come onto the stage.

salmabop *a* picturesque, graphic; ~ **asar** graphic prose.

sahnalashtirmoq *v* stage (*a theatrical presentation*).

sahro *n* desert.

sajda (*rel*) Islamic prayer bow with head to ground; **boshini** ~**ga qo'ymoq** bow one's head to pray in the Islamic manner.

sakkiz *num. card.* eight.

sakkizinchi *num. ord.* eighth.

sakramoq *v* jump; spring, leap, hop .

sakrash *n* jump, leap.

sakson *num. card.* eighty.

saksoninchi *num. ord.* eightieth.

sal *adv* a bit, barely, merely, slightly; ~ **kam** a little less.

salat *n* salad.

salbiy *a* refusing, denying, negative, bad; ~ **obraz** negative character; ~ **natija** negative result.

salgina *adv* just a bit, barely.

salla *n* turban (*of long, white fabric worn by Muslim men*).

salmoq *n* amount, quantity; weight, mass, solidness.

salmoqdor *a* weighty, heavy, massive.

salmoqli weighty, heavy, massive; ~ **ko'saklar** weighty cotton balls.

salobat *n* greatness, impressiveness, massiveness.

salobatli *a* magnificent, impressive; massive, great, huge.

salohiyat *n* ability, capability, capacity.

salom *n* 1) regards, greetings; 2) hallo, how do you do!

salomat safe, healthy; ~ **bo'ling** (*xayrlashganda*) goodbye; (*aks urganda*) keep well.

salomatlik *n* health; **salomatligingiz qalay?** How are you?

salomlashmoq *v* greet one another.

salon *n* shop; **kimyoviy tozlash** ~**i** a dry-cleaner.

sal-pal *adv* a little bit, slightly.
salqin *a* cool, shady.
salqinlamoq *v* have a rest in shade, lie in shade.
salqinlashmoq *v* cool down, cool off.
saltanat *n* reign; sultanate.
saman *a* light bay, cream-colored, greyish (*of horses*).
samara *n* result, product; **mehnat** ~**si** the fruit of one's labour.
samarali *a* fruitful, resultative, effective, intensive.
samarasiz *a* futile, fruitless.
samimiy *a* sincere, heartfelt; ~
salomlar bilan yours sincerely.
samimiyat *n* sincerity.
samimiylik *n* sincerity.
samo *n* sky, heavens.
samolyot *n* (*air*) plane.
samon *n* light bay, cream-colored.
sana *n* date, year.
sanam *n* Fetish, attraction.
sanamoq *v* count.
sanarli *a* counted, countable,
harmoq bilan ~ not so (*much*) many.
sanatoriya *n* sanatorium.
sandal *n* sandal (*national heating stove*).
sandiq *n* trunk, chest, box.
sanoat *n* industry; **og'ir** ~ heavy industry; **yengil** ~ light industry.
sanoatlashtirish *n* industrialization.
sanoatlashfirmoq *v* industrialization.
sanoq *n* account, calculation; ~ **son** cardinal numerals.
sanoqli *a* computed, calculated.

sanoqsiz *a* unnumbered, uncounted.
sangimoq *n* loaf
santimetr *n* centimetre.
sanchilmoq *v* puncture; be punctured.
sanchiq *n* colic.
sanchishmoq *v* impale.
sanchmoq *v* pierce, puncture.
san'at *n* art, skill, mastership.
san'atkor *n* professional artist.
san'atkorona *a* artistically, skilfully.
saodat *n* happiness, bliss.
sapsar *a* iris.
sap-sariq *a* bright yellow.
sapchimoq *v* be started; jump.
saqich *n* chewing gum.
saqlamoq *v* keep, save
saqlanish *n* preservation, storage.
saqlanmoq *v* be kept, be preserved.
sara *a* the best of all.
saralamoq *v* sort, choose, select.
saralanmoq *v* be sorted, chosen, weeded out.
saranjom *a* neat, cosy, comfortable.
saranjomlamoq *v* put in order.
saraton *n* three summer months (*June, July, August*).
sarbo *n* caravan leader, caravan.
sardor *n* leader, chief
sarf *n* expenditure, expenses; ~ **qilmoq** spend, expend; use.
sarflamoq *n* spend, expend; use, utilize, waste (**bekorga vaqt sarflamoq**).
sarflanish *n* expenditure.

sarflanmoq *v* be spent, expended; be used, utilized.

sarguzasht *n* adventure.

sarhad *n* border, frontier.

sari *prep.* forward, to, into.

sarimsoq *n* garlic.

sariq *a* yellow; ~ **kasalligi** hepatitis.

sariqtikan *n* yellow thornbush;

sariyog' *n* butter.

sarig'ilon *n* a podal lizard.

sarishta *a* neat, orderly; ~ **qilmoq** put in order.

sarishtalik *n* neatness, orderliness.

sarkarda *n* colonel, commander of a regiment.

sarlavha *n* title, heading.

sarlavhali *a* entitled, headed.

sarmoya *n* money, cash.

sarosima *a* shocked, distraught; ~**ga tushib qolmoq** be taken aback.

saroy *n* store room, storage room.

sarpo *n* outfit, kit, equipment set.

sarqit *n* remnant, vestige.

sarson *a* wandering, astray; ~ **bo'lmoq** be harassed.

sarsongarchilik *n* harassment, painful ordeal.

sarsonlik *n* harassment, painful ordeal, tribulation.

sartarosh *n* barber (**erkaklar uchun**); hairdresser (**ayollar va erkaklar uchun**).

sartaroshxona *n* hairdressing saloon, barbers saloon.

sarv *n* cypress; ~ **qomat** beauty; attractive.

sarvar *n* chief, leader.

sarvarlik *n* having the qualities of a chief, ~ **qilmoq** take the lead.

sarxush *a* drunk, intoxicated.

sarg'aymoq *v* turn yellow, show yellow.

sarg'ish *a* yellowish, sallow.

sasimoq *v* stink, spoil.

sassiq *a* stinking, foul; ~ **hid** stink.

satang *a* fashionable, stylish.

satin *n* satin (*cloth*).

satira *n* satire.

satirik I *n* satirist.

satirik II *a* satirical.

savamoq *v* lash.

savat *n* basket.

savash *n* thrashing.

savdo *n* trade, commerce.

savdogar *n* tradesman, merchant.
